



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

TURSUNOVA NILUFAR RO‘ZIMURODOVNAning

**5220100 ”Filologiya (ingliz tili)” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**”Ingliz tilidagi qo’shma gaplarning o’zbek tilidagi qiyosiy
tahlili” mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

F.Otamurodova

”Himoyaga tavsiya etilsin”

”Roman-german filologiyasi” fakulteti

dekani. _____ p.f.n. D.Jo’rayev

” _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi- 2012

MUNDARIJA

Kirish	3
1 bob. Ingliz tili va o'zbek tilida qo'shma gap talqini va tasnifi	
1.1. Ingliz tili qo'shma gaplari haqida ma'lumot va uning turlari.....	9
1.2 O'zbek tilida qo'shma gap haqida ma'lumot va uning turlari.....	26
II bob. Hozirgi zamon ingliz tili qo'shma gaplarining	
o'zbek tilida tarjimasi va ularning sintaktik-semantik	
moslashuvi.....	38
2.1. Ingliz tili qo'shma gaplarining o'zbek tilida sintaktik	
moslashishi.....	43
2.2.Qo'shma gaplar tarjimasida semantik moslashish..	59
Xulosa	64
Adabiyotlar ro'yxati	67
a) ilmiy adabiyotlar	
b) badiiy adabiyotlar	
c) lug'atlar	

Kirish

Bugungi kunda, umumiy e'tirofga ko'ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yuq, albatta. Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investisiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta'lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan "O'zbek modeli" - o'z taraqqiyot yo'limizning ajralmas tarkibiy qismidir. Ushbu dastur jiddiy izlanish va tadqiqotlarning, jahondagi taqqiy topgan ilg'or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishning natijasi sifatida o'tmishda majburan singdirilgan kommunistik mafkuraning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib- o'sib kelatotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda, bu dastur hayotda o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan insonlar uchundir. Ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha habardor bo'lish, jahaondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda yurtimizdagi barcha ta'lim, fan, madaniyat va ma'rifat muassasalari Ta'lim portali va intemetga ulangan. Bu esa ta'lim jarayoniga masofadan turib o'qitish usullarini, o'quvchi yoshlar uchun axborot-kommunikatsiya xizmatlarining keng majmuini joriy etish imkonini bermoqda. Ta'lim jarayononi isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayorlahda oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230mingdan ziyod talabalar ta'lim olmoqda.

Ta'lim sohasini xodimlari faoliyatini baholash va rag'batlantirish mezonlari tubdan o'zgartirildi. Umuman, O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu

tizimning davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortiqni tashkil etishi o'z-o'zidan mazkur sohaga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yaqqol tasdig'i hisoblanadi. O'zbekistonda qabul qilingan Ta'lim sohasini isloh etish va malakali kadrlar tayorlash dasturini amalga oshirish bo'yicha o'tgan davrda bajarilgan ishlarni bugun qandaydir o'lchov va raqamlar bilan baholash juda qiyin. Shu bilan birga, bu haqda so'z yuritar ekanmiz, yana bir jihatni nazarda tutishimiz lozim. YA'ni, bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Dastur bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko'chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan demokratik davlatlarda to'plangan tajribani o'zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturdir.

Prezidentimiz I. A. Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish Ostonasida kitobida 80-yillar oxirida, 90-yillar boshlarida mamlakatimizdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy ahvol chuqur tahlil qilinib, mavjud muammolar bilan birga bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar mantiqiy izchillikda aks ettirilgan.¹

Davlatimiz rahbari respublikaga rahbar bo'lib tayinlangan kundanoq aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport ishlariga muhim ahamiyat qaratdi. Ayniqsa ilm-fan rivojiga muhim e'tibor qaratildi. O'zbekiston ilm-fanida blr qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ilmiy laboratoriyalar o'z faoliyatini takomillahtirishga harakat qila boshladi. Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash- mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyada shunday degan edilar: Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlatdan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlargina o'z oldimizga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz.²

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi davrda xalqaro muloqot, munosabatlarga keng yo'l ochilgan bir davrda ingliz tili qo'shma gaplarining tarjimalari rivojlanmoqda. Ingliz tili iboralarining, so'zlarining o'zbek tili va boshqa tillarga kirib kelishi buning isbotidir. Ingliz tilini o'rganish hozirda O'zbekistonlik yoshlar oldida turgan dolzarb masaladir. Hozirda dolzarb bo'lgan bu masala qadim bobokalonlarimiz asarlaridayoq kun tartibiga qo'yilgan edi. Bunga misol qilib

¹ I.A.Karimov. «Ўзбекистан мустақилликка эришиш оstonасида» 2012. Тошкент.

² И.А.Каримов. «Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш- мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шarti» мавзусидаги халқаро конференциянинг осилит маросимидаги нутқи. 2012 йил.

Forobiyning yetmishdan ortiq tilni bilganligi, Usmon Nosirning butun bir asarni yoddan tarjima qilganligini va Navoiy hamda boshqa olimlarning ikki tilda ijod qilganligini ko'rsatib o'tishimiz joiz.

Har bir inson o'zicha takrorlanmasdir, uning hayoti yashayotgan jamiyati bilan chambarchas bog'liq ekan, u o'z nutqida o'sha davr taraqqiyotini aks etadigan nutq birliklarini qo'llaydi va bularning tahlili kelajak avlod uchun ma'naviy ozuqadir. Shuningdek, adabiy tilimizning boyishida chetdan kirib kelgan so'zlarning roli katta. Chunki, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda ro'y beradigan hodisalar, odatda, birinchi navbatda, lisoniy tizimimizda o'z aksini topadi.

Qo'shma gaplarni tekshirish ob'yekti bo'lgan va bunda ancha qimmatli hamda qiziqarli material berilgan, hayot taraqqiyoti bilan qadam-baqadam yurishini ta'minlovchi sintaktik birliklar, ularning ingliz va o'zbek tilidagi tarjimalari berilishi, ularni o'rganish ob'yekti hozirgi kunda dolzarbdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ingliz tilidagi qo'shma gaplarning o'zbek tilidagi tarjimasi tahlil etilgan. Dialektikaning qonuni bo'yicha borliqdagi har bir hodisa-yu hosila serqirrali bo'lganidek, qo'shma gapning ham qirralari ko'p. Shuningdek, til jamiyat bilan hamnafas bo'lib yashaydi, uning hayotdagi o'zgarishlarini, yangiliklarini tez va aniq yetkazadi, ularning ongi, ma'naviyatiga kuchli ta'sir qiladi. Tilning shakllanishiga qo'shma gaplar alohida hissa qo'shadi. Tilning tarkibiy qismi bo'lgan grammatika sathidan o'rin olgan qo'shma gaplar o'ziga xos xususiyati, tarkibidagi gaplarning ingliz va o'zbek tili manbalarida qo'llanishini tahlil etish bitiruv malakaviy ish maqsadidir. Bu maqsaddan quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

- Ingliz tilida qo'llangan qo'shma gaplarning o'zbek tilidagi variantlari xususiyatlarini ochish;
- Har ikki tildagi qo'shma gaplar qismlarining o'ziga xos tomonlarini qiyoslab ko'rsatish;
- Ingliz va o'zbek tilidagi qo'shma gap tarkibiy qismlarining bog'lanish yo'llarini qiyosiy tahlil etish;
- Qo'shma gap qismlari tarkibida uyushiq bo'laklar, uyushiq kesim va uyushgan gaplarning qo'llanilishi;

Ingliz tilida berilgan qo'shma gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ustozimiz Dots. R. Qiyomov nuqtai nazarlaridan kelib chiqish;

- Tahlil qilingan manbada qo'llangan qo'shma gaplar haqida statistik ma'lumot berish.

Bitiruv malakaviy ish metodi. Tadqiqotda qo'yilgan masalani yoritishda hozirgi davr tilshunosligida keng tarqalgan qiyosiy, sinxron tasviriy, statistik va struktur-semantik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tilshunosligida keyingi davrda ustozlarimiz; Dots.R. Qiyomov va Dots. S. Egamberdiyevlar qo'lga kiritilgan yutuqlar ushbu tadqiqot uchun nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Ingliz tili qo'shma gap birligining qo'llanishi maxsus tadqiq etilmagan. Qo'shma gaplarning bir qirrasini ingliz tili qo'shma gaplarining o'zbek tilida berilishi xususiyatlari diqqat markazda bo'ldi va quyidagilarga erishildi:

- qo'shma gap tahlilida ingliz va o'zbek olimlari yaratgan nazariyalardan kelib chiqildi;
- qo'shma gap tipik turlari tarkibida gaplarning kelishi ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'zaro munosabati va semantikasi har ikki til materialida tadqiq etildi;
- ergashgan qo'shma gaplar har ikki tilda qo'llanganda ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatildi;
- qo'shma gaplarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalarida qo'llanishi tahlil etildi;
- ingliz tilidagi ba'zi qo'shma gaplarning o'zbek tiliga tarjima qilganda sodda gap tarzida qo'llanishi qayd etildi;
- ingliz tilidagi qo'shma gap qismlarining o'zaro birikishi tahlili berildi va o'zbek tilidagi varianti bilan qiyoslandi;
- qo'shma gaplarning mazmuni xususiyatlari har ikki tilning o'ziga xos xususiyatlari dan kelib chiqqanligi va ba'zi mazmun bo'yoqlari bo'rttirilib, ayrimlari kuchsizlantirilgan holda hamda yana birlarining o'zgargan tarzda berilishi tahlil etildi;
- ingliz tilidagi qo'shma gaplarning o'zbek tilidagi variantlari bilan qiyosiy tahlili ularning ham mazmun, ham tuzilish jihatidan farqli va o'xshash tomonlarini bo'lishi mumkinligi aniqlandi.
- Ingliz tilidagi bir yoki ikki qo'shma gap, o'zbek tiliga qo'shma gaplardan keyin qo'llangan sodda gap tarzida berilishi o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda ko'rilgan masalalar ingliz tili ilmiy grammatikasi, tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslik kabi sohalarga ma'lum bir hissa bo'lib qo'shiladi. Ilmiy grammatikalar sintaksis bo'yicha darslik va tarjimashunoslik fanidan o'quv qo'llanmalar yaratishda material sifatida xizmat qilishi tabiiy. Shuningdek, o'z faoliyatida qo'shma gap talqinidan foydalanuvchi shaxslar uchun, ingliz tili va o'zbek tillarini o'rganuvchilar uchun, tarjimonlar uchun zarur manba bo'lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning manbai. Bitiruv malakaviy ishni yoritishda ingliz va o'zbek olimlarning sintaktik birlik - qo'shma gap ta'limotidagi fikrlariga tayanildi. Qo'shma gaplar nazariyasi hamda uning asosiy tamoyillari bo'lgan ma'naviy va sintaktik-semantik talqinga oid manbalarda ko'rib chiqildi.

I.bob. Ingliz tili va o'zbek tilida qo'shma gap talqini va tasnifi

1.1. Ingliz tili qo'shma gaplari haqida ma'lumot va uning turlari

Qo'shma gapga ta'rif berilayotganda ingliz olimlaridan ayrimlari ega va kesimlar soni haqida, ba'zilar qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar soniga ahamiyat beradilar va yana birlari bu ikki holatni birlashtiradilar. Ingliz tilidagi qo'shma gap nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz normativ grammatikasida to'la shakllangan va hozirgi davrgacha hech o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda. Turli oilalarga mansub bo'lgan tillar grammatikalarida o'xshash nazariyalar ko'p. Sodda va qo'shma gaplar nazariyasi ham bundan mustasno emas, masalan,

He opened the door and saw us.

U eshikni ochdi va bizni ko'rdi.

Он открыл дверь и увидел нас. Yoki,

She stopped, closed her eyes, and pushed the door.

U to'xtadi, ko'zini yumdi va eshikni itardi.

Она остановилась, закрыла глаза и толкнула.

Bu kabi holatlar o'zbek olimlari tomonidan tadqiq etilgan XX asr ilmiy grammatika ta'limotining nazariy asosida XIX asr ikkinchi yarmi normativ grammatikaning qo'shma gap haqidagi fikrlari yotadi. XX asr tilshunosligida gapga ta'rif berish bobida an'anaviy va noana'naviy ta'riflar uchraydi. Qo'shma gap ta'rifi, ko'pincha, uning tarkibi va imda birdan ortiq tobe qismning mavjudligi bilan bog'liq Kruisinga qo'shma gaplar ta'rifida son belgisidan voz kechmaydi, struktur va mazmuniy belgilar - ergash gapli qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining tugalligi va mustaqilligiga tayanadi Roderik A.Yakobs qo'shma gap qismlari haqida shunday dedi: **«Clauses are constructions with one phrase, that bears the subject relation and another constituent, the verb phrase, bearing the predicate relation.»**

Shu bilan birga XX asrning 90 - yillaridan ingliz tilida chop etilgan ilmiy asarlarda sintaksisning umumiy nazariy masalalari tadqiq etilgan. Bu ishlarda qo'shma gap, uning turlari haqida ma'lumotlar mavjud. Qo'shma gap tarkibiy qismlari, uning uslublarida qo'llanishi,

o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilmagan. Qo'shma gapga ta'rif berayotganda boshqa tilshunoslar kabi ingliz olimlari ham turli kriteriyalarni asos qilib olganlar:

- Ega va kesimlarning soni
- Tobe neksus
- Mustaqil qo'llana olish
- Qismlar soni
- Qismlarning bir-birisiz qo'llanmasligi
- Bir nechta predikativ markaz
- Sintaktik aloqa tiplari

- Bog'lovchi vositalar bor- yo'qligi
 - Fonetik shakllanganlik
 - Bir necha situatsiyalar ifodasi
 - Intonatsion shakllangan
 - Murakkab maznun
 - Struktur va semantik birlik
 - Kommunikativ birlik
 - Bir necha sodda gaplar
-
- Mazmuniy va Grammatik jihatdan bog'lanish
 - Tobe kesimning mavjudligi
 - Kommunikativ butunlik
 - Tugal mazmun

70-yillarga kelib Ilish qo'shma gapni tadqiq qilar ekan, asosiy farqini ularning qaysi tarkib (clause)ga ko'ra bog'langanligiga qarab tadqiq qilgan. Olimning fikricha, ba'zi qo'shma gaplar vazifasiga ko'ra bog'lovchi so'z yordamida bog'lanadi va uning ma'nosi aniqlanadi, ba'zilar esa bog'langanda bunday so'zlarni talab qilmaydi. Bog'lovchilar yordamida birikkan qo'shma gap - bog'lovchili qo'shma gap (syndetic) bog'lovchi so'z olmaydigan qo'shma gap - bog'lovchisiz qo'shma gap (asyndetic) bo'ladi. Lekin bularning ikkisini ham bir necha tarkibda bo'lganligi uchun olim qo'shma gap deb ataydi.

Ingliz olimi Ilish o'sha davrda uyushiq bo'lakli (homogeneous parts) gaplarning qo'shma gapga o'tishi masalasini ko'rib chiqdi. Uning aytishicha, "I met my relatives and friends would be said to have been «contracted» out of two sentences: I met my relatives, and I met my friends» shaklidagi gaplardir.

Ilish har bir tarkibli (one-member) gaplarni o'rganar ekan, ularning bir nechtasi birikib qo'shma gapni tashkil qilishini ham ochib bergan:

«A different kind of one-member clause is seen in the following compound sentence: A good leap, and perhaps one might clear the narrow terrace and so crash down yet another thirty feet to the sunbaked ground below.» (Huxley) Bunday gaplarni sodda birikmali gaplar bilan almashtirish mumkin deydi, olim o'z fikrida davom etar ekan.

The meaning is of course equivalent to that of a sentence like it would be enough to make a good leap, etc.

60-yillarda Ganshina ingliz tili gaplari va qo'shma gaplari haqida fikr yuritir ekan an'anaviy izlanish yo'lidan borib qo'shma gaplarni ikki turga ajratadi. Qo'shma gaplarni farqlashda u ham yuqorida keltirilgan an'anaga amal qilgan.

XV11I asrning ikkinchi yarmida kiritilgan clause tushunchasi Ganshina nazariyasining ham markazidan o'rin olgan.


A compound sentence consists of two or more independent sentences connected by way of co-ordination; each independent sentence is called an independent clause yoki:

«A complex sentence formed by subordination consists of a principal clause and one or more subordinate clauses.

Ganshina ergashgan qo'shma gaplarni sodda gaplarning mazmuniga qarab farqlagan.

«The functions of subordinate clauses are similar to those of the parts of a simple sentence.»

Olimning fikricha, qo'shma gaplarni quyidagicha farqlash mumkin:



Ganshina qo'shma gaplar tahlili nazariyasida yangi yo'l qo'shma gaplarning yoyiq sodda gaplar bilan sinonimik qator hosil qilishini aytib o'tgan.


«The similarity of the functions if subordinate clauses to those of the parts of a simple sentence is stressed by the existence of synonymous constructions:

1) *I forgot to post the letter which I wrote yesterday.*

2) *I forgot to post the letter written by me yesterday.*»


Ganshina ergash gaplarning bosh gapga bog'lanish yo'lini ergash gaplarning bosh gapga to'g'ridan-to'g'ri yoki ketma-ket bog'lanishini isbotlab berdi.

1. *I inquired of my conductor (1), as we went along (2), how Mrs.Steerforth was (3) (Dickens) (To'g'ridan to'g'ri bog'lanish.)*
to'g'ridan to'g'ri bog'lanish.



2. *The party was held in a large room (1) which was already crowded(2) when She/ton entered (3) (Ketma-ket bog'lanish)*

Ketma-ket bog'lanish




Ergash gapli qo'shrna gap atamasi o'rnida ergash gap ishlatiladi.

Ilish ergashgan qo'shma gaplarni o'rganishda yangi yo'l – juftlab o'rganish fikrini oldinga surdi. Uning tadqiqiga ko'ra ergash gaplar yoxud ikki sodda gap tobe-hokim munosabatda biri ikkinchisiga bog'lanishda ishtirok etadigan bog'lovchilarni «relative clause» atamasi bilan bog'lab ular orasidagi munosabatni nisbiy ergashish deb topdi. Ilish nazariyasi bo'yicha ikki sodda gapni bir-biriga tobe-hokim munosabatda bog'laydigan nisbiy olmoshlar yoki nisbiy ravishlar ular orasidagi nisbiy ergashishni keltirib chiqaradi.

«The term «relative clause» may very well be applied to any clause introduced by a relative pronoun or relative adverb.»

B. Ilish o'zining «The Structure of Modern English» nomli asarida ergash gapli qo'shma gaplarni uchta guruhga bo'lib tadqiq qilgan. Bu tadqiqot qo'shma gaplarni ham O. Jepsenning ingliz tilida ergash gapli qo'shma gaplarni tarkibidagi ergash gapning qaysi gap bo'lagini to'ldirib, izohlab, aniqlab kelishiga ko'ra uch turga bo'linadi degan fikrni asos qilib olgan.

B. Ilish nazariyasida ergash gapli qo'shma gaplar ega va kesim ergash gapli qo'shma gaplar (subject and predicative clauses), to'ldiruvchi va aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar (object clauses and attributive clauses) va ravish ergash gapli qo'shma gap (adverbial clause). Ravish ergash gapli qo'shma gapning turlari bilan birgalikda B. Ilish ingliz tilida ergashgan qo'shma gaplar sonini 12 ta deb topdi. Ularni quyidagicha turlarga ajratdi:



B. Ilish ingliz tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarni yuqorida ko'rsatilgandek turlarga ajratdi. Umuman olganda, ergash gapli qo'shma gaplarning turi ba'zan 10 ta deb, ba'zida 14 tagacha aniqlangan. Ergash gapli qo'shma gaplarni Ilish yana bir turga taqlid va taqqoslash (clauses of manner and comparison) ko'paytirdi.

70-yillarga kelib rus olimi V. Kaushanskaya boshliq bir guruh rus olimlari ingliz tilida qo'shma gaplarni o'rganishda an'anaviy yo'lni davom ettirdilar. Ular o'zining «A grammar of the English language» asarida K. Kuper boshlab bergan Ganshina davom ettirgan yo'Idan borib, murakkab qo'shma gaplar (The complex sentence) ning tarkibidagi sodda gaplar ikki xil bog'lanishga ega, ya'ni bog'lovchilar yordamida (syndetically) va bog'lovchi yoki yuklamalarsiz (asyndetically) bog'lanuvchi qo'shma gaplar degan fikrni ilgari surdilar. Kaushanskaya va Barxudarovlar ham O. Jespersen tadqiqotidan voz kechmagan holda ergash gapli qo'shma gaplarni grammatik vazifasiga ko'ra, asosan, uch turga bo'linadi degan ta'limotini davom ettirdi.

V. Kaushanskaya qo'shma gaplarning asosiy turlar sonini beshtaga ko'paytirgan bo'lsa, Barxudarov kirish gapli qo'shma gap (вводные придаточные предложения) nazariyasini oldinga surib uchta tur bor deb belgiladi.

Kaushanskaya ta'limoti bo'yicha qo'shma gaplar grammatik vazifasiga ko'ra ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hoi ergash gapli [o'shma gap turlariga bo'linadi.

«According to their grammatical function subordinate clauses are divided into subject, predicative, attributive, object and adverbial clauses.» [5]

Kaushanskaya aniqlovchi ergash gaplarni ikki (relative and oppositive) ga ajratib va o'xshatish hamda qiyoslash (clauses of manner and comparison) ergash gaplarini ikkiga ajratib ergash gaplar sonini 14 taga yetkazdi.

L. Barxudarov esa ergash gapli qo'shma gaplarni:

1. Bosh bo'lakli ergash gapli qo'shma gap (придаточные предложения в роли главных членов) ega va kesim ergash gaplar.




2. Ikkinchi darajali bo'laklarning ergash gapdagi ahamiyati (придаточные предложения в роли второстепенных членов), ya'ni to'ldiruvchi, hoi va aniqlovchi ergash gaplar.

3. Kirish gapli ergashgan qo'shma gaplar (вводные придаточные предложение) asosida uchta asosiy guruhlarga hamda B. Ilish yo'lidan borib 12 ta turi mavjud deb fikr yuritgan.

XXI asrga kelib Muhammad G'aprov o'zining «Ingliz tili grammatikasi» asarida ingliz olimlari fikrini davom ettirib shunday yozadi:

«Qo'shma gaplar butun bir murakkab fikrni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan oborat bo'ladi.

Qo'shma gaplar ikki xil bo'ladi: bog'langan qo'shma gaplar (Compound Sentences) va ergashgan qo'shma gaplar (Complex Sentences).» Olim an'anaviy tilshunoslik nazariyasiga asoslanib «Ergash gaplar qo'shma gapda bitta gap bo'lagi vazifasini bajarib keladi. Tilimizda nechta gap bo'lagi bo'lsa, shuncha ergash gaplar ham bor» deb yozadi.



M.G'aprov ergash gaplarni grammatik vazifasiga ko'ra, Kaushanskaya va Kachalova yo'lidan borib, asosan, ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap va hoi ergash gaplarga bo'ladi.

M.G'aprov ham ergash gaplarni ma'no munosabatiga ko'ra turlarini B.Ilish, Barxudarov, Kachalova tutgan yo'ldan borib 12 ta turi mavjud degan fikrni oldinga suradi. Olim aniqlovchi ergash gaplarni qo'shma gapda anglatgan ma'nosiga ko'ra uch turga: ajratuvchi aniqlovchi ergash gap, tasniflovchi aniqlovchi ergash gap va izohlovchi aniqlovchi ergash gap turlariga ajratadi. Bundan tashqari shart ergash gaplarni: real shart gaplar va noreal shart gaplarga bo'ladi. Olim o'z fikrida davom etib ravish ergash gaplarni ikki turga vaziyat ergash gaplari va qiyoslash ergash gaplariga ajratadi.

M.G'aprov nazariy asosiga ko'ra ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gaplar, bosh gapdagi qaysi bo'lakni to'ldirib, aniqlab, izohlab kelishiga ko'ra bajaradigan grammatik

vazifasiga ko'ra, qaysi bog'lovchi bilan bog'langanligiga ko'ra, qanaqa ma'no anglatayotganligiga ko'ra 16 ta turga bo'linadi.

Aniqllovchi, shart hamda ravish ergash gapli qo'shma gaplar o'z o'rnida ichki bo'linishi, o'zaro farqlari asosiga qurilgan, shunday ekan ularni alohida gap (ergash gapli qo'shma gap) tarzida atashimiz mumkin.

Tilni o'rganish uzoq tarixga ega va u jamiyatning , jamiyat esa tilining kamol topishi, takomillashishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham tilni o'rganish hamma joyda ham bir xilda kechmaydi.

Tilning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan gap, xususan, qo'shma gaplarni o'rganishda qo'shma gaplarning belgilash mezonini izlanishda ikki asos mavjud:

a) keng tarqalgan ommalashgan ega asosi;

b) yo'1-yo'lakay, qator mustasnolar bilan kesim asosi. Birinchi yo'nalish sodda gapning hozirgi davr ta'limotiga asoslangan va u bilan bog'langan. Bu yo'nalish XX asrning o'rtalarida qayta qo'lga kiritgan yevropa tilshunosligining gap, albatta ikki tarkibdan iborat bo'lishi, egasiz gaplarning bo'lishi mumkin emasligi haqidagi ta'limoti bilan mantiqning hukm ikki bo'lakli - sub'yekt va predikatdan iborat bo'lishligi, sub'yektning hokimligi va predikatning tobeligi ta'limoti bilan mustahkamlangan edi.

Qo'shma gaplar tasnifi, komponentlarining mazmun munosabatlariga ko'ra, birikish usuliga ko'ra, miqdoriga ko'ra , ifoda maqsadiga ko'ra turlarga bo'linadi. Uyushiq komponentli qo'shma gaplar va uyushiq qo'shma gaplar, ular komponentlarining tasdiq va inkor shakllarida qo'llanishini kuzatishimiz mumkin.

«An'anaviy sintaksis» deb nomlangan sintaksisning nazariy tahlil usullari shakllangan, bular quyidagilar;

1) sodda gap ikki asos, ikki bosh bo'lak - ega va kesimning birikuvidan iborat;

2) qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikishidan hosil bo'ladi;

3) kesim ega haqidagi xabarni tasdiq yoki inkor formada ifodalashga xizmat qiladi, u ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Ega hukmronlik mavqeiga ega;

4) sodda va qo'shma gaplarni am'qlashda ega asos qilib olinadi. Gapning bosh bo'laklariga bunday yondashish mantiqiy sub'yekt -predikat munosabatlari bilan qorishtirishga olib keldi.

Quyida qo'shma gaplarga turli tillarda berilgan ta'riflarni keltiramizki yuqoridagi fikrlarning isbotini ko'ramiz:

M.Y. Blox o'zining “Теоретическая грамматика английского языка” nomli asarida ingliz tili qo'shma gaplariga shunday ta'rif beradi: «The composite sentence, as different from the simple sentence, is formed by two or more predicative lines. Being a polypredicative construction, it expresses a complicated act of thought, i.e. an act of mental activity which falls into two or more intellectual efforts closely combined with one another»

Bu qatorni davom ettirish mumkin. Qo'shma gap turlari, komponentlari bog'lovchi vositalar va ko'pgina masalalar bo'yicha xuddi shu holni ko'rsa bo'ladi, ko'rinib turibdiki, barcha tillarda qo'shma gaplar talqini deyarli bir xil.

Birinchidan, qo'shma gap komponentlarining mazmuniga qarab klassifikatsiya qilinadi: 1) teng komponentli; 2) tobe komponentli qo'shma gaplar;

Ikkinchidan, qo'shma gap komponentlarining o'zaro bog'lanish usuliga qarab klassifikatsiya qilinadi: 1) bog'lovchili qo'shma gap va 2) bog'lovchisiz qo'shma gap;

Uchinchidan, qo'shma gap komponentlarining miqdoriga ko'ra turlanadi: 1) ikki komponentli va 2) ko'p komponentli;

To'rtinchidan, qo'shma gap komponentlarining tarkibiga ko'ra turlari: 1) bir tarkibli qo'shma gaplar va 2) ikki tarkibli qo'shma gaplar;

Beshinchidan, qo'shma gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: 1) darak; 2) so'roq; 3) buyruq qo'shma gaplar; emotsionallikka ko'ra emotsional va emotsional bo'lmagan qo'shma gaplar. Bu tasnif asosida ham an'anaviy yondashuv tayanch nuqtani bajarmoqda.

Biz hozir ingliz tilida berilgan misollarni ko'rib chiqamiz. Bu misollar ingliz tilidagi qo'shma gaplarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Bu misollarda biz qo'shma gaplarning turlarini aniqlashga harakat qilamiz. Chunki ingliz tilida xuddi o'zbek tilidagidek qo'shma gaplar turi ko'p.

1. **"What was important to her was matrimony"** (J.L).

«Uning uchun muhim bo'lgan narsa nikoh edi».

2. **"Our attitude simply is that facts are facts"**. (L.)

«Bizning munosabatimiz oddiy, asos doim asosdir».

3. I don't know **what you are talking about** (G. and D)

«Nima haqida gapirayotganingni bilmayman».

4. **"So I went up to where she was"**(H.L.)

«Men uning yoniga bordim».

5. **"When I woke in the morning I went to the window and looked out"**. (E.H.)

«Ertalab turgach, deraza yoniga bordim va tashqariga qaradim».

6. **"I left the young man to go where he would with my box and money"**.(Ch. D.)

«Men u yosh odamni mening quttim va pulim turgan joyga borish uchun qoldirdim»

7. **"As he had a liking for the spot,** he seldom let a

week pass without paying it a visit". (Dickens)

«U u joyni yoqtirgani uchun kamdan-kam biron haftani tashriflarsiz o'tib ketishiga yo'l qo'yardi».

8. **"He is so weak physically that he can hardly move"**. (Shaw)

«U jismonan ancha nimjon bo'lganligi uchun zo'rg'a harakat qilardi».

9.»The captain spoke pidgin Italian **in order that I might understand perfectly**» (E.H.)
«Men yaxshiroq tushuna olishim uchun kapitan italyanchani soddaroq qilib gapirdi».

10. “She did exactly **as he told her**”.(H)

«U unga qanday aytgan bo’lsa, u xuddi shunday bajargandi».

11 . “Joe left the house **as he had entered it**».(C.) «Djo uyga kiriboq chiqib ketdi”.

12. “I enjoyed that day, though we travelled slowly, **though it was cold, though it rained**”.
(Ch. B.)

«Biz sekin yurgan bo’lsakda, sovuq bo’lgan bo’lsada, yomg’ir yoqqan bo’lsada, o’sha kunni yaxshi o’tkazgandim».

13. “I will do anything you wish, my brother, **provided it lies in my power**”. (D.)

«Qo’limdan kelganicha, akajon, siz xohlagan hamma narsani qilaman’

Biz endi yuqoridagi misollar asosida, transformatsiya usulidan foydalanib, bosh gap va ergash gaplarni hamda ergash gapli qo’shma gapning qaysi turiga kirishini aniqlaymiz:

I. Ega ergash gapli qo’shma gap(subject clause)

1. «What was important to her was matrimony» (J.L).

«What was important to her»- ega ergash gap, «was matrimony»-bosh gap. Biz buni savol qo’yish yo’li bilan aniqlaymiz, chunki har doim bosh gapdan ergash gapga savol beriladi va bosh gapdagi qaysi gap bo’lagini aniqlab, izohlab, to’ldirib kelishiga qarab tobe gap aniqlanadi.

What was matrimony?

2. «It was a mercy he didn’t lose his presence of mind» (Ch.D.)

Bu misolda «it was a mercy»-bosh gap va «he didn’t lose his presence of mind»-ega ergash gapdir, ikkinchi gap bosh gapda «it»olmoshi bilan ifodalangan egani izohlab kelayapti. What was a mercy?

3. «It was right that his mother should be the first to greet him» (P.A.)

Bu misolda ham yuqoridagi kabi «it was right»- bosh gap, «his mother should be the first to greet him» esa ega ergash gapdir, chunki what was right? Deb so’roq beriladi va bosh gapda «it» olmoshi bilan ifodalangan egani ikkinchi gap ifodalab kelayapti.

4. «It’s a pity her brother should be quite a stranger to her».(L)

Bu misolda ham yuqorida ko’rib o’tganimizday, «it’s a pity»-bosh gap, «her brother should be quite a stranger to her» esa ega ergash gapdir. What is a pity?

5. «What I want **to do** is to save us both» (D.) Bu misolimizda ham birinchi misoldagidek bosh gap «is to save us both» tarzida egasiz qo’llangan va ega ergash «what I want to do» gap bosh gapga ega vazifasini bajaradi.Buni savol berish yo’li bilan aniqlash mumkin: What is to save us both?

II. Kesim ergash gapli qo’shma gap(predicative clause)

1. «Our attitude simply is **that facts are facts**». (L.)

Bu misolda biz kesim ergash gapning qoidasidan kelib chiqib «our attitude simply» - bosh gap va «is that facts are facts» - kesim ergash gap deyishimiz mumkin(chuinki kesim ergash gapli qo'shma gapda kesim ergash gap bosh gapning kesimi bo'lib keladi). What is our attitude simply?

2. «**It was as if these men and women had matured**». (H.) Bu misolda «it was»-bosh gap, «as if these men and women had matured» esa kesim ergash gapdir. What was it?

3. «The fact was, **he did not understand them**» (J.G.) Bu misolda «the fact was»- bosh gap, «he did not understand them» -kesim ergash gapdir. What was the fact?

4. «I do my duty. That's **what I do**» (Ch. D.)

Bu misolda «that's»-bosh gap «what I do» kesim ergash gapdir.

What is that?

5. The question was **how** was **the matter to be kept quiet**. (D.)

Bu misolda «the question was»- bosh gap, «how was the matter to be kept quiet» - kesim ergash gapdir. What was the question?

III. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap (object clause)

1. «I don't know **what you are talking about** (G. and D)

Bu misolda «I don't know»- bosh gap unga ergashib, uni to'ldirib kelgan «what you are talking about «gapi to'ldiruvchi ergash gap. What don't you know?

2. «Time will show **whether I am right or wrong**. (C.)

Bu misolda «time will show»-bosh gap, «I am right or wrong»gapi to'ldiruvchi ergash gap, «whether»- bog'lovchi. What will time show?

3. «I'll do just **what I say**». (D.)

Bu misolda «I'll do just»-bosh gap, «I say»-to'ldiruvch ergash gap «what» - bog'lovchi. What will you do?

4. «I like *it* very much **that you like my work**». (E.H.)

Bu misolda «I like it very much»-bosh gap, «you like my work»-to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi «it»olmoshi bilan ifodalangan to'ldiruvchini izohlab kelayapti , «that»- bog'lovchi. What do you like very much?

5. «She was aware **that someone else was there**»(E.) Bu misolda «she was aware»-bosh gap, «someone else was there»-to'ldiruvchi ergash gap, «that»-bog'lovchi. What was she aware?

IV. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap (attributive clause)

1. «**It was the hottest place that** I had ever been in»(J.) Bu misolda «It was the hottest place «- bosh gap va bosh gapdagi

«place» soʻzini aniqlab kelayotgan «I had ever been in»gapi – aniqlovchi ergash gapli qoʻshma gap. What place was it?

2. «The man who was here yesterday is a painter».(D.)

Bu misolda «The man is a painter» - bosh gap va bosh gapdagi «the man» soʻzini aniqlab kelgan «who was here yesterday» gapi -aniqlovchi ergash gapdir. Which man is a painter?

3. «I think my father is the best man **i have ever known**» (Sh.)

Bu misolda «my father is the best man» - bosh gap va bosh gapdagi «man»otini aniqlab kelgan «I have ever known»gapi aniqlovchi ergash gapdir. What kiind of man is your father?

4. «In this room, **which was never used**, a light was a burning». (D.)

Bu misolda «in this room a light was a burning»- bosh gap va bosh gapdagi «room» otini aniqlab kelgan «which was never used»- aniqlovchi ergash gap. In which room was a light a burning?

5. «It was **the** worst Sunday **he had spent in his life**».(D.)

Bu misolda «it was the worst Sunday»- bosh gap, «he had spent in his life» esa aniqlovchi ergash gap. What kind of Sunday was it?

V. Payt ergash gapli qoʻshma gap (Adverbial clause of time)

1. «**When I woke in the morning** I went to the window and looked out». (E.H.)

Bu misolda «I went to the window and looked out»- bosh gap va bosh gapning qachon sodir boʻlganligini koʻrsatib kelayotgan «I woke in the morning» gapi - payt ergash gap, «when» - esa bogʻlovchi

When did you go to the window and looked out?

2. «You can stay here **as long as you want**». (E.H.) Bu misolda «you can stay here»- bosh gap va bosh gapning qay vaqtgacha davom etishini ifodalab kelayotgan «you want» gapi - payt ergash gap, «as long as»- bogʻlovchi. How long can you stay here?

3. “I’ll go back **whenever you want**”.(E.H.)

Bu misolda «I’ll go,back»- bosh gap va uni qay vaqt sodir boʻlishini bildiribkelayotgan «whenever you want «- payt ergash gap, hamda bogʻlovchi. What time will you go back?

3. «He didn’t stop **till he reached the station**». (H.L.)

Bu misolda «he didn’t stop»- bosh gap va bosh gapning qay vaqtgacha sodir boʻlganligini ifodalab kelgan «he reached the station» gapi payt ergash gap, «till» - bogʻlovchi. When didn’t he stop?

5. «My mother died **when I was eight years old ...**»(E) Bu misolda ham yuqoridagilar kabi «my mother died»- bosh gap, «I was eight years old» - gapi payt ergash gap va «when»- payt ergash gap bog'lovchisi. When did your mother die?

VI. O'rin ergash gapli qo'shma gap (adverbial clause of place)

1. «I left the young man to go **where he would with my box and money**». (Ch. D.)

Bu misolimizda «I left the young man to go» - bosh gap «to go» infinitiv bilan ifodalangan gap bo'lagini qayerga borishini izohlab kelayotgan va «where» bog'lovchisi bilan bog'langan «he would with my box and money» gapi - o'rin ergash gapdir, Where did you leave the young man to go?

2. «I looked **where she pointed**».(C.)

Bu misolda «I looked» - bosh gap, «she pointed» - o'rin ergash va «where» - o'rin ergash gapning bog'lovchisi. Where did you look?

3. «I am quite comfortable **where I am**». (W.) Bu misolda «I am quite comfortable»- bosh gap, «where I am»- o'rin ergash gap va uning bog'lovchisi. Where are you quite comfortable?

4. «I like to spend my leave **where I can shoot**». (T.H.)

Bu misolda «I like to spend my leave» - bosh gap, «I can shoot» -o'rin ergash gap va «where» - o'rin ergash gap bog'lovchisi. Where did you like to spend your leave?

5. «I remembered **where I was going**» [F.A. Ch VII. P29] Bu gapda «I remembered»bosh gap, va «I was going»- o'rin ergash gap, «where»- o'rin ergash gap bog'lovchisi. What did you remember?

VII. Sabab ergash gap (adverbial clause of cause)

1. «**As he had a liking for the spot**, he seldom let a week pass without paying it a visit». (Dickens)

Bu misolda «he seldom let a week pass without paying it a visit»-gapi bosh gap va bosh gapning nima sababdan sodir bo'layotganini ifodalab kelayotgan «he had a liking for the spot» gapi - sabab ergash gapdir. Why did he seldom let a week pass without paying it a visit?

2 «Letters were infrequent in his world and not very welcome **because more often than not they contained bad news**» . (P.A)

Bu misolda «Letters were infrequent in his world and not very welcome» - bosh gap va uni nima uchun sodir bo'lganligini ifodalab kelayotgan «more often than not they contained bad news» gapi - sabab ergash gap, «because»- sabab ergash gapning bog'lovchisi.

Why were letters infrequent in his world and not very welcome?

3. «I love you **because you brought me up to something better**» (B. Shaw)

Bu misolda «I love you»- bosh gap, «you brought me up to something better» gapi - sabab ergash gap, «because»- sabab ergash gapning bog'lovchisi. Why do I love you?

4. «At first they were shy, and **since Charley was shy too, they sat in silence**» (S.M)

Bu gapda «At first they were shy»- bosh gap va uni nima uchun sodir bo'lganligini ifodalab kelayotgan «Charley was shy too, they sat in silence» - sabab ergash gap, «since»-sabab ergash gapning bog'lovchisi.

Why were at first they shy ?

5. «We were up early the next morning, **as we wanted to be in Oxford by the afternoon**» (Jerome)

Bu misolda «We were up early the next morning» - bosh gap va uni nima uchun sodir bo'lganligini ifodalab kelayotgan «we wanted to be in Oxford by the afternoon»gapi - sabab ergash gap, «as» - sabab ergash gapning bog'lovchisi. Why were you up early the next morning?

VIII. Natija ergash gap (Adverbial clause of result)

1. He is so weak physically that he can hardly move. (Shaw)

Bu misolda «he is so weak physically»-gapi bosh gap va bosh gapda «so»-so'zi bilan kelayotgan gap bo'lagining nima sababli yuzaga kelganligini ko'rsatib kelayotgan «he can hardly move»gapi natija ergash gap, «that»esa bog'lovchi. Why is he weak physically?

2. Tom was in ecstasies - **in such ecstasies that he even controlled his tongue and was silent.** (Twain)

Bu misolda «Tom was in ecstasies»-gapi bosh gap va bosh gapda «**in such ecstasies**»-so'zi bilan kelayotgan gap bo'lagining nima sababli yuzaga kelganligini ko'rsatib kelayotgan «he even controlled his tongue and was silent»gapi natija ergash gap, «that»esa bog'lovchi. Why was Tom in ecstasies?

3. He was so intent upon his own reflections that he was quite unconscious of my approach. (D.)

Bu misolda «he was so intent upon his own reflections»-gapi bosh gap va bosh gapda «so»-so'zi bilan kelayotgan gap bo'lagining nima sababli yuzaga kelganligini ko'rsatib kelayotgan «he was quite unconscious of my approach»gapi natija ergash gap, «that»esa bog'lovchi.

Why was he so intent upon his own reflections?

4. «The bookseller had never heard of the author **so that I got the books cheap**». (A.B.)

Bu misolda «the bookseller had never heard of the author»-gapi bosh gap va bosh gapda «**so that**»-bog'lovchisi bilan kelayotgan gap bo'lagining nima sababli yuzaga kelganligini ko'rsatib kelayotgan «I got the books cheap»gapi natija ergash gap.

Why had the bookseller never heard of the author?

5. I have slept lately with my blind drawn up, **so that at waking, I have the sky in view.** (G.)

Bu misolda «I have slept lately with my blind drawn up»-gapi bosh gap va bosh gapda «**so that**»-bog'lovchisi bilan kelayotgan gap bo'lagining nima sababli yuzaga kelganligini ko'rsatib kelayotgan «at waking, I have the sky in view»gapi natija ergash gap. Why have I slept lately with my blind drawn up?

1.2. O'zbek tilida qo'shma gap haqida ma'lumot va uning turlari.

O'zbek tilini o'rganish ham o'z navbatida uzoq tarixga ega. O'zbek tilini o'rganish haqidagi dastlabki manba XI asrda yaratilgan shoh asar «Devonu-lug'otit-turk»da berilgan bo'lsa, XI asrdan XIX asrgacha uni tadqiq etish arab tilshunosligining nazariy asoslariga tayangan. Bu tilshunoslik biz ko'nikkan asoslardan, talqinlardan ancha farq qiladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to 80-yillargacha bo'lgan tilshunoslik shu davrda keng amalda bo'lgan Yevropa tilshunosligi me'yorlariga tayangan holda rivojlandi. Bu davrning boshida o'zbek tili amaliy talablar asosida M.A.Terent'yev, V.P. Nalivkin A.Alekseyev, A.Vishnegorskiylar asarlarida o'rganildi. Shu davr va 20-yillargacha o'zbek sintaksisi masalalari hech kimni qiziqtirgani yo'q. Buning sababi shundaki, Yevropada hukmron bo'lgan yosh grammatiklarning, xususan, F.Vostokov, F.Fortunatovlarning tadqiqotlari, asosan, fonetika, leksikologiya, morfologiya masalalarini o'rganish bilan bog'liq bo'lib, sintaksis esa aksariyat hollarda ularning nazaridan chetda qolgan edi. E.V.Sevortyanning qayd etishicha, bu davrda turkologiyada ham gap haqida to'xtalinmagan. Shu davrning 20-yillariga kelib, o'zbek tili grammatikasini fan sifatida o'rganishga intilish jonlandi: maktablar uchun darsliklar, qo'llanmalar yaratishga harakat qilindi va bu adabiyotlarda sintaksisga ham ma'lum o'rin ajratilgan edi. 1924 yilda A.Fitratning nashr etilgan «Nahv» (Sintaksis) asari, uning 1925 - 1930 yillar davomida uch marta qayta nashrlari e'tiborga loyiqdir. 1930 yilda chop etilgan darslik nisbatan mukammal bo'lib, unda sintaksisning masalalari o'sha davr saviyasiga mos ravishda berilgan. 1929 yilda Q.Ramazon, Sh.Zunnunlarning «O'zbek tili» (Ish kitobi II bo'lim), 1933 yilda N.Said, A.Yo'ldoshevlarning «Grammatika»si, 1938 yilda H.G'oziyevning «O'zbek tili grammatikasi» chop etildi. 1940 yilda chop etilgan A.G'ulomovning «O'zbek till grammatikasi» (II qism. Sintaksis) darsligi faqat sintaksisga bag'ishlangan, unda sodda va qo'shma gaplar masalasi ancha mukammal yoritilgan edi. Darslikda qo'shma gap dastlab ikkiga bo'lib o'rganiladi: a) bog'langan qo'shma gaplar; b) ergashgan qo'shma gaplar.

Bog'langan qo'shma gaplar, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi:

- 1) yordamchili bog'langan qo'shma gaplar;
- 2) yordamchisiz bog'langan qo'shma gaplar.

Ergashgan qo'shma gaplarning o'n bir turi haqida fikr yuritiladi.

Ergashgan qo'shma gaplar tasnifi ergash gapning mazmuni asosida beriladi.

A.G'ulomovning 1940 yilda nashr etilgan «o'zbek tilida aniqlovchilar» kitobida barcha yoyiq aniqlovchilar aniqlovchi gap deb olinadi va ular ishtirokida tuzilgan gaplar qo'shma gaplar qatoriga kiritiladi.

A.G'.G'ulomov 1955 yilda e'lon qilgan «Sodda gap» kitobida yuqorida qayd etilgan fikridan qaytganga o'xshaydi, chunki darslikda aniqlovchi gap eslatilmaydi va unga berilgan ayrim

misollar yoyiq aniqlovchi sifatida keltirilgan. Bu an'anaviy fikrni F. Kamolov qisman tasdiqlab, bir nechta kesimi bo'lgan konstruksiyalarni ikkiga bo'lib o'rganadi va qo'shma gapni baholashda ega bilan cheklanib qolmay diqqatni kesim va uning tuzilishiga ham qaratilishi lozimligini ko'tarib chiqdi. F.Kamolovning bu fikri rivojlantirilnadi.

O'zbek tilshunosligida qo'shma gap masalasi ilmiy asosda birinchi marta G'. Abdurahmonov tomonidan tadqiq etildi. Olim o'z asarlarida qo'shma va sodda gaplarning farqlari, o'zaro munosabati, qo'shma gaplarning turlari, qo'shma gap tarkibi, uning tarkibida qo'llangan vositalar, bosh va ergash gaplar, ularning xususiyatlari kabi ko'plab masalalarni yoritgan. G'.Abdurahmonov ergash gapli qo'shma gapni oldin 13 turga, so'ng esa 15 turga ajratadi. Shuningdek, bog'lovchisiz qo'shma gap, uning komponentlarini biriktiruvchi vositalar, komponentlarning mazmun munosabatlari va murakkab qoshma gap, uning turlari kabi bir qancha masalalar tadqiq etilgan.

Uyushiq kesimli gaplar haqida olim shunday yozadi: «Sodda va qoshma gaplarni farqlashda qiyinchilik tug'dirgan holat shundan iboratki, ba'zi bir sintaktik konstruksiyalarning tarkibida faqat bir ega -sub'yekt bo'lishiga qaramay, qo'shma gap sanaladi, chunki bu xil konstruksiyani tashkil qilgan qismlarning ham grammatik, ham semantik jihatdan o'ziga mustaqil ekanligi ko'rinib turibdi; bu xil konstruksiyalarni tashkil etgan qismlarning har biri ma'lum fikr tugalligini ifodalaydi, ularning predikativlik va modallik xususiyatlari bo'ladi». M.A.Asqarova qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz kabi turlari haqida fikr yuritadi va ergashgan qo'shma gaplarning turlarini beradi.

F.S.Ubayeva qo'shma gaplarni tahlil qilar ekan, uning tasnifi, komponentlarining mazmun munosabatlariga ko'ra, birikish usuliga ko'ra, miqdoriga ko'ra, ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida fikr yuritadi. Uyushiq komponentli qo'shma gaplar va uyushiq qo'shma gaplar, ular, komponentlarining tasdiq va inkor shakllarda qo'llanishini misollar asosida isbotlab, chizma, jadvallarda o'z fikrlarini aks ettiradi. An'anaviy tilshunoslik o'zbek tilshunosligi uchun o'ta muhim bosqich bo'ldi. O'sha davrlarda, N.Mahmudov aytganidek, «o'zbek till hodisalarini rus qoliplariga solib tushuntirish» majburiy edi.

60-yillarga kelib, sistemaviy sintaksis turli-tuman xususiy muammolarning muhokama va munozarasidan ayrim tillarning mukammal sistem sintaksisini yaratishga qarab rivojlanadi. Rus tilshunosligida bu masala jiddiyligi bilan 60-yillarda qo'yildi. Rus ilmiy sistem grammatikasida so'zlar birikmasi, sodda gap qurilishi va o'xshashlik qatorlari (paradigmasi) qo'shma gap qurilishi va o'xshashlik qatorlari (paradigmatikasi) masalalarini o'rganishda N.Y.Shvedova, G.P.Uluxanov, M.I.Cheremisina, Y.V.Guliga, G.M.Reyxel va boshqa olimlarning xizmati katta bo'ldi.

Tilga sistemaviy yondashuvning negizi, asosi til va nutq hodisalarini farqlash bo'lganligi sababli tadqiqotchilarning bir guruhi sistem sintaksis tahlilini izchil ravishda gapning til sathidagi eng kichik qurilishi qolipini ishlab chiqishdan boshladi. Chunki yaxlit sintaktik talqinni ishlab chiqish uchun gap qolipi bosh mezon vazifasini o'taydi. Gapni o'rganish uchun uning «jon»ini - «til sathidagi eng kichik qolipi» ni belgilash shart va zarur edi.

Gapning eng kichik qurilish qolipi tadqiqotchi M.Abuzalovanning ilmiy ishida maxsus tadqiqot manbai bo'ldi.

Tilshunoslar guruhi sodda gapning til sathidagi mohiyatini belgilashda sintaktik nazariyaning gap haqidagi quyidagi talqiniga asoslandi:

1. Gapning eng kichik qolipi til birligi (ongimizda mavjud) umumiy birlik bo'lib, u nutqimizda fikrni til qoidalariga mos ravishda shakllangan tarzda yuzaga chiqarish uchun imkoniyatdir.

2. Gapning eng kichik qolipini belgilashda tilshunoslar uning tashqi qurilishi, ichki qurilishi va mohiyatini ajratishdi.

3. Gap, gap kichik qolipidan o'rin ola oladigan tarkibiy qismlarining mohiyatini belgilashda birikuvchanlik (valentlik), jumladan, lug'aviy birikmalar (so'z, leksema)ning ma'noviy (semantik) va sintaktik birikuvchanligiga asoslanishdir. Gapning eng kichik qurilishi qolipidan lug'aviy birliklarning kengaytiruvchilari (aktantlari va ularni ifodalovchilar) chiqarildi.

4. O'zbek tilida gapning eng kichik qolipini belgilashda Hind-Yevropa tillari bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy farq hamisha diqqat markazida bo'ldi. Bu farq esa quyidagicha: Hind-Yevropa tillariga bir tarkibli gaplar, umuman, xos emas va gap hech qachon egasiz bo'la olmaydi. Turkiy tillar, xususan, o'zbek tilida **«men xatni yozaman, sen xatni olib kelasan» gapi bilan «xatni yozaman, olib kelasan»gapi** orasida keskin farq yo'q, ya'ni, o'zbek tilida kesim shaxs-son jihatidan mukammal shakllangandir.

Yuqorida keltirilgan to'rt asosga tayanib, o'zbek tilidagi sodda gap eng kichik qolipining tarkibi [WP_m] sifatida belgilangan. Bunda [W] -kesimning, gap kesimining atash, ma'no bildirishga xizmat qiladigan qismi bo'lib, mustaqil so'z turkumiga oid bo'lgan, ya'ni kesim vazifasida kela oladigan so'zga, so'zlar birikmasiga, kengaytirilgan birikmalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari oborotlari)ga teng kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, [W] til qolipidagi imkoniyat bo'lib, u nutqda atov birligi vazifasini o'tay oladigan va shu nutqning istagan birligi (so'z, so'z birikmasi va hatto gap) shaklida voqelanishi mumkin. [P_m] esa atov birligi [W]ni gap qolipi shakliga keltiruvchi vositalar majmuasining ramzi bo'lib, u nutqda kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari shaklida voqelanadi.

Kesimlik kategoriyasi rus tilshunosligida maxsus morfologik kategoriya sifatida ajratilmaydi. Shuning uchun bunday kategoriya o'zbek tilshunosligida ham ajratilmagan edi. Lekin umumiy tilshunoslikda atov birliklarini gap kesimi shakliga keltiruvchi maxsus grammatik kategoriyaning


mavjudligi tilshunos nazariyotchilari ishlarida, jumladan, I.M.Meshaninov, A.I.Smirnitskiy, O.Yespersen] va boshqalarning ishlarida isbotlangan. Keyinchalik bu masala V.M.Banaru, Y.V.Guliga, G.M.Reyxel tadqiqotlarida batafsil ko'rildi O'zbek sistemaviy sintaksisida esa bu masalaga bag'ishlangan ayrim ishlar mavjud Umuman, yillar davomida milliy tillar rivoji cheklanganligi hammaga ma'lum. Mustabidlik davrida o'zbek tilshunosligi rus tilshunosligi nazariyasiga moslashtirilgan, tilimizning betakror va noyob xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan edi. G'.Zikrillayevning 2000 yilda chop etilgan «Istiqlol va adabiy til» deb nomlangan risolalarida qoliplar ko'chirish qay darajada bo'lganligi faktlar asosida ko'rsatilgan. Ona tilimiz orqali o'sha davrlarda milliy o'zligimiz, ruhiyatimizni ifodalay olmas edik. Tilshunos olim Humbolt tilni mohiyatiga ko'ra ruhiy faoliyat, ruhiy quvvat degan, chunki xalq tili uning ruhiyati, xalq ruhiyati uning tilidir. 70 yil davomida xalqimiz o'z tilini mustaqil ravishda o'rgana olmay yashagan. Bu, o'ylaymizki, olimlarimiz aybi yoki xohishi emas, bu - o'sha davr taqozosi edi. N.Turniyozov «...rus tilshunosligida erishilgan yutuqlardan oqilona foydalanmay, xususan, rus tili andozalaridan ko'r-ko'rona foydalanganimiz tilshunosligimiz taraqqiyotiga salbiy ta'sir etdi» deb qayd etadi. Lekin o'sha davrda ona tilimiz mohiyatini tadqiq etish imkoniyati yo'q edi. Bu imkoniyatning paydo bo'lishiga ikki buyuk tarixiy voqea — ona tilimizga Davlat tili maqomining berilishi va Respublikamizning Mustaqillikka erishgani sabab bo'ldi. Xalqimiz erishgan Mustaqillik fanimizni «o'zbek till hodisalarini rus till qoliplariga solib tushuntirish» tutqunligidan ham ozod qildi, unga mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib, milliy ong, milliy tafakkur va mafkuraning muhim suyanchiqlaridan, yosh avlodga ijodiy tafakkur ko'nikmalarini singdirishning asosiy vositalaridan biriga aylanishga imkon berdi Yuqorida qayd etgan mana shu ikki tarixiy voqea H.G'. Ne'matov rahbarligida bir guruh olimlar tomonidan tayyorlanib, 1984 yilda e'lon qilingan mashhur «Tezislar»ida ko'tarilgan sistemaviy sintaksis muammolarining tadqiqiga keng yo'l ochib berdi. « Tezislar» mualliflari turkiy tillar, xususan, o'zbek tili mohiyatidan kelib chiqib tahlil qilish, izlanish va xulosa chiqarish tarafdorlaridir.

Sistemaviy-struktural yo'nalishi bo'yicha tadqiq etilgan qo'shma gapning tasnifi masalasiga to'xtashdan oldin, ulardan ayrimlari haqida fikr yuritishni lozim deb topdik.

Qo'shma gapga berilgan ta'riflar kabi unung tasniflari ham o'xshash va an'anaviy tilshunoslik masalalariga bag'ishlangan grammatika hamda darsliklarda bu aks etgan. Ayrim misollar keltiramiz:

I. O'zbek tilida, umuman, turkiy tillarda:

1. a) Qo'shma gap ichidagi ayrim gaplarning o'zaro bog'lanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gap; bir necha ergash gapli qo'shma gap;



1.v) ergash gaplar «mazmun va bosh gapga bo'lgan munosabatlariga ko'ra « 12 ta turga ajratilgan. Ergash gap yordamchisiz ergashgan qo'shma gaplar turiga ega;

2.1 a) qo'shma gap quyidagi turlarga ajraladi:

- a) bog'langan qo'shma gap;
- b) ergash gapli qo'shma gap (14ta tur);
- c) bog'lovchisiz qo'shma gap;
- d) turli tipli gaplardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap;
- e) murakkab tarkibli qo'shma gap

2.2.a) qo'shma gap quyidagi turlarga ajraladi:

- a) bog'lovchisiz qo'shma gaplar;
- b) bog'langan qoshma gaplar;
- c) ergash gapli qo'shma gaplar;
- d) bir necha ergash gapli qo'shma gaplar;
- e) murakkab period

2.3.a) qo'shma gap quyidagi turlarga ajraladi:

- a) bog'lovchisiz qo'shma gaplar;
- b) ergashgan qo'shma gaplar;
- c) bir necha ergash gapli qo'shma gaplar;
- d) murakkab komponentli qo'shma gaplar;
- e) aralash qo'shma gaplar. [

Mustaqillik davrida kashf etilishi, asoslanishi va rivojlanishi lozim bo'lgan g'oyalar hamda ular zaminida yaratilishi zarur bo'lgan lingvistik yo'nalish va ilmiy maktablar uchun juda muhim bir manba bo'ldiki, buni hali kelajak avlod tarixga zarhal harflar bilan yozib qo'yadi.

Mustaqillik davri kashf etilishiga yo'l ochib bergan maktab - Buxoro lingvistik maktabi va u asos solgan shakliy-vazifaviy (formal-funksional; sistemaviy-struktural) yo'nalishdir. Bu yo'nalishda ish olib borgan olim-u tadqiqotchilar fonetik, leksik, morfologik, sintaktik birliklarini til sathida tadqiq etdilar. Sintaksisning tadqiq ob'ektlaridan biri bo'lgan qo'shma gaplarga ham til sathi hosilasi sifatida yondashganlar. Va to'g'ri yo'l tutdilar ham. Qo'shma gapning til sathidagi eng kichik qurilishi qolipi $[WP_mRWP_m]$ deb qabul qilingan. Bu qolipda qo'shma gap hamma

boshqa birliklardan xoli, uni kengaytiruvchi hosilalar olinmagan. Qo'shma gap orasidagi ma'noviy munosabatlarda o'z aksini topadigan bog'lovchilar paradigmasi ta'siridan ozod qilinsa, u hamma til birliklari kabi juda sodda, ixcham va ravshan tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mana shu [WP_mRWP_m] qolipi uch tipik turga ega (mustaqillik davrida sinovdan o'tgan ilmiy ishlar, darsliklarga qarang):

1.[WP_mRWP_m], ya'ni kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan ikki va undan ortiq atov birligining erkin, nutqiy bog'lanishi;

2. [WP_mRWP_m], ya'ni kesimlik korsatkichlari bilan shakllangan ikki yoki undan ortiq atov birliklarini birining ikkinchisiga tobe bog'lanishi;

3. [WP_mRWP_m], ya'ni kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan ikki yoki undan ortiq atov birliklarining o'zaro ma'noviy mutanosibligi. Qo'shma gapning formal-funksional talqini R.Sayfullayeva tomonidan ishlanib, «Tezislarda» berilgan [WP_mRWP_m] qolipi, uning uchta tipik turi va ularning nutqiy ko'rinishlari tadqiq etildi. Olima «Mantiqiy to'g'ri tasnif va o'rganish manbaining serqirraligini hisobga olgan holda bir asosdagina qurilishi mumkin; manba har bir qirrasi asosida alohida-alohida tasniflar uchun zamin bo'lmog'i kerak,» - deb qayd etadi va quyidagilarni diqqatga havola qiladi:

I Qo'shma gaplarning tuzilishi jihatdan tasnifi. Bu tasnifda [QG]lar uch turga ajratiladi.

II Qo'shma gaplarning ma'noviy munosabatlar asosida tasnifi.

Bu tasnifda [WP_mRWP_m] tarkibidagi gaplar faqat ular orasidagi ma'no munosabatlari asosida tasnif etiladi va bir ma'noning turli yo'llar bilan ifodalanishi diqqat markazida bo'ladi. Ma'noviy munosabatlar shakl munosabatlari bilan nisbiy mutanosiblikda (asimmetrik dualizm) bo'lganligi sabablari bir xil munosabatlar bilan (omonimiya va polisemiya) bog'lanishi mumkinligi qayd etiladi.

III Qo'shma gaplarning o'zaro bog'lovchi vositalar asosida tasnifi.

Bu tasnif sof shakliy bo'lib, qo'shma gaplar orasidagi ma'noviy bog'lanish qanday qo'shimcha (shakliy) vositalar bilan ta'minlanishiga tayanadi. Bu jihatdan qo'shma gaplar besh turga ajratiladi. Shu tasnifmng ichki bo'linishini biz:

a) nisbiy so'zlar, teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplar; b) nisbiy so'zlar va yuklamalar vositasida birikkan qo'shma gaplar; c) kiritma konstruksiyalar yordamida birikkan qo'shma gaplar; d) ajratilgan bo'laklar yordamida birikkan qo'shma gaplar; e) umumlashtiruvchi konstruksiyalar va boshqa ko'pgina vositalar yordamida birikkan qo'shma gaplar kabi turlari bilan to'ldirishimiz mumkin.

IV Qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari orasida sintaktik munosabatlar asosida tasnifi.

V Shuningdek, qo'shma gaplar tarkibidagi qismlar tuzilishiga ko'ra tasnifini berish mumkin:

Qo'shma gaplar tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar masalasi ham tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolgani yo'q. Shuningdek, qo'shma gaplar tarkibida frazeologik (turg'un) birikmalarning qo'llanishi masalasiga bag'ishlangan ba'zi mulohazalar mavjud. Sintaktik birliklar, qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining derivatsion xususiyatlarini tadqiq etish ham qiziqarli ma'lumotlarni berdi. Professor H.G'.Ne'matov tomonidan kashf etilgan til tizimini tashkil etuvchi birliklarning hammasiga xos ikki yoqlama ichki ziddiyatning saqlanish qonunivati qo'shma gaplar tizimida ham qo'llangani tabiiydir.

Yuqorida qayd etilgan masalalar o'zbek tilshunosligidagi sistem-vazifaviy yo'nalish asoschisi professor H.G'.Ne'matov va shogirdlari tomonidan tadqiq etilgan masalalarning bir qismidir, biz ularning fonologiya, leksikologiya, morfologiya, matnshunoslik, leksikografiya, sotsiolingvistika bobida qilgan ishlariga to'xtayotganimiz yo'q. Hozirgi kunda faqatgina o'zbek tili sintaksisi bobida ajdodlarimiz taxmin sifatida olg'a surgan g'oya -kesimning hukmronligi, sodda gapning asosi ekanligi g'oyasi olimlarimiz tomonidan milliy istiqlolimiz sharofati bilan isbotlandi va rivojlantirildi. O'zbek tilshunoslarining o'z yelkalariga katta ma'suliyat olib, bizga qoldirgan bebaho merosiga ehtirom bilan yondashishimiz, o'zbek tilshunosligi tarixida uning har bir jabhasida sistem-struktur tadqiq usullarini qo'llanayotgani va alohida maktab, yo'nalish barpo etilganini mustaqillikning bizga bergan mevasi deb, bilishimiz, tabiiy.

Xulosa

Ingliz tilida qo'shma gap tadqiqi o'z tarixiga ega. XVII ikkinchi yarmida K.Kuper tomonidan yaratilgan asarlarda ilk ma'lumot uchraydi. Shu asr yetakchi olimi R.Lout bu nazariyani davom ettiradi. XIX asrning o'rtalarida ingliz tilida qo'shma gap nazariyasi shakllana boshladi va XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz normativ grammatikasida qo'shma gap to'la shakllangan va hozirgi davrgacha hech o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda.

Ingliz tilida qo'shma gap talqini va tasnifi muammosini ko'rib chiqar ekanmiz teng va tobe tarkibli tipik turlarning keng tarqalganiga amin bo'ldik. Ingliz tilidagi qo'shma gaplar tarkib jihatidan boshqa tillarda qo'llangan qo'shma gaplardan farq qilmaydi.

Ingliz tili qo'shma gaplar asos tarkibidagi sodda gaplarda, albatta ikki asos (ega va kesim) bo'lishi shart degan qoida hamma vaqt ham o'z aksini topmaydi, teng tarkibli qo'shma gaplarda, birinchi qism bir tarkibli, boshqalari esa ikki tarkibli bo'lishi mumkinligi ko'rildi.

Ushbu bobda ingliz tili qo'shma gaplari turli tayanch nuqtalari asosida ta'riflangan. Uning talqini va tasnifi muammosiga ingliz tilshunoslari bilan bir qatorda g'arb olimlari nuqtai-nazaridan kelib chiqib yondashildi. Keltirilgan hamma tasnif (turli tillar grammatikalarida berilgan)larda ham sodda gap asosida ega olingan. Shuning uchun tasniflar ko'p bo'lsada ular o'xshashdir. Vaholangki har bir til, ayniqsa, har-xil oilalarga mansub tillar o'z xususiyatlariga ega va ularni bir-biriga singdirish mumkin emas.

Ingliz olimlarining qo'shma gap masalasiga bag'ishlangan ilmiy ishlari tahlili berildi. Tasniflarda qo'shma gaplarning turli belgilariga aralash holda tayanilganlik ko'rsatilgan.

Ingliz olimlarining boshqa tilshunos olimlar kriteriyalari asosida, qo'shma gap ta'rifi asosi keltirildi. Olimlar nuqtai-nazaridan (ular ilmiy asarlari asos qilib olinib) kelib chiqib ingliz tilida qo'shma gapning turlari va ularga asos bo'luvchi tasniflar keltirildi.

Ingliz tilida qo'shma gapning struktur-semantik, leksik, morfologik belgilar va qismlarning o'zaro bog'lanish xarakteriga ko'ra tasnifi keltirildi. Oldin yaratilgan tasniflarga tayangan holda ishda qo'shma gapning birgina qirrasini ko'rsatuvchi - qismlari tuzilishi jihatdan tasnifi berildi.

Qo'shma gap talqini va tasnifi muammosi ancha qiziqarli masala. Olimlarimiz bizga qoldirgan meroslaridan bu masala o'zining uzoq tarixiga egaligini bilamiz. Qoshma gap haqida dastlabki ma'lumotlar XIX asrning 20-yillarida chop etilgan asarlarda berilgan. Ammo bu ma'lumotlar mukammal emas edi. 1940-yillardan keyingina qoshma gap muammosi olimlar diqqatida bo'ldi.

Qoshma gap turli tayanch nuqtalari asosida tasniflangan. Uning talqini va tasnifi masalalariga jahon olimlarining o'z nuqtai nazaridan yondashgani ishning shu bobida qisqa tarzda bo'lsa ham, tadqiq etildi. Keltirilgan hamma tasnif (o'zbek va rus tillarida berilgan)larda ham sodda gap

asosiga ega olingan. Shuning uchun tasniflar ko'p bo'lsa-da, ular o'xshashdir. Vaholanki, har bir til o'z qonun qoidalariga ega bu qonun qoidalar til imkoniyatlaridan kelib chiqqan.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab, 1940-50 yillarda qo'shma gapni belgilash mezoni bobida mavjud bo'lgan ikki asosdan ikkinchisi- yo'l-yo'lakay va qator mustasolar bilan olg'a surilgan kesim asosiga tayangan holda har bir sintaktik birlikka tizimga yondashildi.

O'zbek olimlarining qo'shma gap masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlari tahlili berilgan. Tasniflar haqida fikr yuritilar ekan, ularda qo'shma gapning turli belgilariga aralash holda tayanilganlik ko'rsatilgan: struktur- semantik, leksik, morfologik belgilari va qismlarning o'zaro bog'lanish xarakteriga (ya'ni bog'lovchilar va b. grammatik vositalarning qo'llanilishi// qo'llanmasligiga) ko'ra tasniflari keltirildi va ularning ayrimlariga o'zgartirishlar kiritildi.

Formal-funksional talqinda qo'shma gaplar tasnifi uning ma'lum bir qirrasida tasnif etilgan. Oldin yaratilgan tasniflarga tayangan holda ishda qo'shma gapning birgina qirrasini ko'rsatuvchi - qismlari tuzilishi jihatidan tasnifi berildi.

II Bob. Hozirgi zamon ingliz tili qo'shma gaplarining o'zbek tilida tarjimasi va ular sintaktik-semantik moslashuvi

Ingliz tili va **o'zbek** tili qo'shma gaplarining bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari, ular o'rtasidagi mazmun munosabat va ikki oilaga mansub tillarda gaplarda so'z tartibi kabi masalarni quyidagi misallarda ko'zdan kechiramiz:

1. «The town was very nice and our house was very fine.» (f.A- Chll p4)

«Shahar juda ajoyib, biz turgan uy esa juda chiroyli edi.» (A. Q Bill. P 9)

Ingliz tilida bog'langan qo'shma gap o'zbek tiliga bog'lovchisiz qo'shma gap tarzida tarjima qilingan. Ingliz tili qo'shma gapida «The town» birinchi gapning egasi «was very nice» esa kesimi bo'lib kelgan «and» ikki sod- da gapni bir-biriga bog'lab kelgan teng bog'lovchi, «our» ega- ning aniqlovchisi, «house» ikkinchi gapning egasi, «was very fine» ikkinchi gap kesimidir.

O'zbek tili variantida I. G'ofurov bu gapni bog'lovchisiz qo'shma gap tarzida tarjima qilganlar, unda «shahar» ega «juda ajoyib» ot kesim (nomustaqil), «biz turgan» sifatlovchi aniqlovchi «uy» ikkinchi gap egasi, «chiroyli edi» esa kesim. Agar biz bu gapni grammatik jihatdan yondashib tarjima qilsak quyidagi natijaga erishamiz:

«Shahar juda ajoyib edi va bizning uy juda chiroyli edi» Ibrohim G'ofurov gap mazmunidan kelib chiqib ingliz tilidagi «was» bog'lamasi hamda «and» bog'lovchisini tashlab ketganlar, shu bilan birga «our house» (bizning uy) so'z qo'shilmasini, «biz turgan uy» tarzida ifodalagan. Bu tarjimada birinchidan uyga egalik yo'qolsa, ikkinchidan ingliz tilidagi qaratqich aniqlovchi (our) o'zbek tiliga «biz turgan» sifatlovchi aniqlovchi tarzida berilgan. -*

2. «While I was looking at him he opened his eyes»

(f. A ch III p9)

«Men qarab turganimni sezib, u bo'zini ochdi» (A.Q Bill 17 b)

Ingliz tilidagi payt ergash gap o'zbek tiliga holat ergash gap tarzida tarjima qilingan. Ingliz tilida qo'shma gapda «While» bog'lovchi, «I» ergash gap egasi, «was looking» ergash gap kesimi, «at him» esa to'ldiruvchi, «he» bosh gap egasi, «opened» bosh gap kesimi, «his» aniqlovchi, «eyes» esa vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan.

Tarjimada ingliz tilidagi ergash gap bir tarkibli sodda gap tarzida tarjima qilingan. Bunda: «sezib» nomustaqil kesim, «qarab turganimni» to'ldiruvchi, «mening» aniqlovchi, bosh gapda «u» ega, «ko'zini» to'ldiruvchi, «ochdi» kesim. Ingliz tilidagi «his» egalik olmoshi o'zbek tilida «i» egalik qo'shimchasi yordamida tarjima qilingan.

Bu gapni grammatik jihatdan yondashib quyidagicha tarjima qilish mumkin:

«Men unga qarctyotgan edim, u ko'zini ochdi» Shu tarzda tarjima qilsak ham mazmun jihatdan, ham grammatik jihatdan bir xillikka erishamiz.

3. «I did not care what I was getting into» (f.A. Ch 6 p22)

«Men buning oqibati qanday bo'lishini o'ylab o'tirmasdim». (A.Q. B6 37-b)

Inglizcha variantda «I» bosh gap egasi «did not care» kesim, «what» to'ldiruvchi ergash gap bog'lovchisi, «I» ergash gap egasi «was getting into» ergash gap kesimi.

I. G'ofurov ingliz tilidagi to'ldiruvchi ergash gapni yoyiq sodda gap tarzida o'zbek tiliga tarjima qilganlar. «Men» ega, «buning oqibati qanday bo'lishini» ergash gap murakkab to'ldiruvchi bo'lib «o'ylab o'tirmasdim» kesim tarzida tarjima qilingan.

Aslida: «Men qayg'urmasdim, men nima qilayotganim haqida».

4 I think it will be over soon» (f.A. Ch25 p 124) «Urush tez orada tugab qolar» (A.Q.B26, 185-b)

Ingliz tilida to'ldiruvchi ergash gap tarzida berilgan gap o'zbek tiliga sodda gap tarzida tarjima qilingan.

«I» bosh gap egasi, «think» kesim, «it» ergash gap egasi, «will be over» kesimi, soon- hoi. O'zbekchada «urush» ega, «tugab qolar» kesim, «tez orada» hoi, «I think» tarzida ifodalangan gap ishtirok etmagan.

Aslida tarjima: «Men o'ylaymanki, u(urush) tez orada tugaydi» tarzida qilinsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

5. «I remembered where I was going» (f. A. Ch7. p29)

«Qayoqqa borayotganim esimga tushib ketdi» (A.Q.B7 47-b)

Ingliz tilida «I» ega bo'lib, «remembered» kesim bo'lib kelgan, «where» o'rin ergash gapli qo'shma gap bog'lovchisi, «I» ergash gap egasi «was going» ergash gap kesimi.

I. G'ofurov tarjimasida o'rin ergash gap soda gapga aylangan.

«tushib ketdi»- kesim, «esimga» to'ldiruvchi «qayoqqa» hoi va «ketayotganim» ega vazifasida kelgan.

Grammatik to'g'ri tarjima: «Men esladim, men qayoqqa ketayotganimni» tarzida bo'lishi kerak edi.

6. «I stood up, but it was not Catherine» (f.A. Ch.7 p30)

«O'rnimdan turdim, biroq bu Ketrin emasdi» A.Q.B. & 48-b)

Ingliz tilida bog'langan qo'shma gap «I» ega, «stood up» kesim, «but» teng bog'lovchi, «it» ega «was not Catherine» kesim.

O'zbek tilida bir tarkibli qismli qo'shma gap. «O'rnimdan» hoi «turdim» kesim «men» ega ishtirok etmagan, biroq teng bog'lovchi, «bu» ega «Ketrin emasdi» kesim.

Bu gapni grammatik jihatdan tarjima qilsak quyidagiga erishamiz: «Men o'rnimdan turdim, lekin u Ketrin emas edi» tarzida tarjima qilinsa ham mazmun jihatdan, ham Grammatik jihatdan bir xillikka erishiladi.

7. «I hope she's not ill» (f.A. ch7 p30)

«Hoynahoy betob emasmi» (A.Q.B749-b) Ingliz tilida»! hope she's not ill» maqsad ergash gap. O'zbek tiliga soda so'roq gapda matn asosida tarjima qilingan.

«I « bosh gap egasi « hope» kesim , she ega , «isn't ill « kesim

«Hoynahoy» kirish so'z «betob emasmi» esa kesim

Grammatik jihatdan Ingliz tilidagi gap o'zbek tilidagi gapga tarkib jihatidan ham tuzilish jihatidan ham o'xshamaydi. Bu gapni quyidagicha tarjima qilish mumkin: «Men umid qilamanki, u kasal emas»

8. « After I was wounded I never found him» (F.A. p32) «Ko'p o'tmay u esimdan chiqdi» (A.Q.B. 7 51-b) Bu gapni tarjima qilishda ham I. G'ofurov matn asosidan kelib chiqqan gap tarjimasi mazmun jihatidan ham grammatik jihatidan ham to'g'ri kelmaydi.

«After « bog'lovchi «I» ergash gap egasi, «was wounded» kesim , «I» bosh gapning egasi , «never» hoi, «found» kesim «him» to'ldiruvchi, «ko'p» ravish «o'tmay» kesim «U» ega «esimdan chiqdi kesim.

Bu gap mazmun va grammatik jihatdan yondashib quyidagicha tarjima qilish mumkin: «Men yaralanganimdan so'ng, men uni hech qayerdan topa olmadim». Shu holda tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

9. «I went with him and found the dugout which was very good» (fA.ch9.p34)

«Soldat bilan sal yurmasimizdan shinamgina bilindaj ustidan chiqdik» (A.Q.B. 9 54-b)

«I» ega «went» kesim «with him» to'ldiruvchi, «and found» uyushiq kesim, «the dugout» to'ldiruvchi , «which» aniqlovchi ergash gapning aniqlovchisi, «was very good» kesim.

Soldat bilan to'ldiruvchi , «sal» ravish «yurmasimizdan» to'ldiruvchi, «shinamgina»aniqlovchi, «ustidan chiqdik» kesim.

O'zbek tiliga LG'afurov soddaga gap tarzida tarjima qilgan gap aslida aniqlovchi ergash gap va u quyidagicha tarjima qilinishi kerak: «Men u bilan ketayotib shunday blindajni topdimki, u juda ajoyib edi».

10. «I saw he wore gloves» (f.A.ch 10 p47)

«Men u qo'lqop kiyganini payqadim». (A.Q.B. 10 726-b)

«I» bosh gap egasi «saw» kesim «he» ega «wore» kesim, «gloves» to'ldiruvchi. «Men» ega, «u qo'lqop kiyganini» murakkab to'ldiruvchi, «payqadim» kesim.

Ingliz tilida to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap o'zbek tiliga murakkab to'ldiruvchili soddaga gap tarzida tarjima qilingan. Aslida u quyidagicha tarjima qilinishi kerak. «Men ko'rdim, u qo'lqop kiygan edi».

Bunday tarjima ikki oilaga mansub tillarni bir-biri bilan moslashtirib ham grammatik, ham mazmun jihatidan to'g'ri tarjima qilishga yordam beradi.

Qo'shma gaplarning o'ziga xos xususiyatlari kabi yirik muammo g'arb va ingliz tilshunoslari, turkologlar, xususan, o'zbek tilshunoslarining diqqatini tortgan va ularning tadqiq manbai bo'lgan. Qo'shma gaplarning tadqiqida, ya'ni ularning shakllanishi va farqlanishida sintaktik birliklar muhim mavqega ega. Hozirgi davrgacha deyarli hamma tadqiqotchilarda u 57 yoki bu qo'shma gapning leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil etilgan, xolos. Aniqki, mavjud barcha sintaktik birliklar (kategoriyalar) funksional uslublar uchun umumiydir. Qo'shma gap turlarida sodda gaplarning qo'llanish doirasi va imkoniyati bir-biridan farq qiladi. Sintaktik birliklarning biri bo'lmish qo'shma gaplar nutq uslublarida keng qo'llanishi haqida olimlarimiz fikr bildirishgan. Ingliz tilshunosligida qo'shma gap stilistikasi, ya'ni uning ayrim turlari ba'zi funksional uslublarda o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida bu masala A.Mamajonov asarlarida chuqur va keng tahlil qilingan. Publisistik nutqda qo'llanuvchi qo'shma gaplarni tadqiq etgan olim ularning, asosan, informativ xususiyatga egaligi, davrning dolzarb masalalarini qamrab olishi, xabarni tez va atroflicha yetkazish uchun qulay imkoniyat yaratishga diqqatini qaratgan.

A.Mamajonovning fikricha, qo'shma gaplarning qiyoslash-zidlash munosabatini ifodalovchi qo'shma gap tiplari publisistik nutqda eng mahsuldor stilistik qatlamni tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ish ob'yektimiz - ingliz tilda, xususan, Ernest Xemingueyning «Alvido qurol» asaridagi qo'shma gaplarning o'zbek tilidagi talqini va ular tarjimasidagi o'zgarishlardir. Bu masala tilshunoslik ilmida maxsus tadqiq etilmagan bo'lsada, ayrim asarlarda ma'lum darajada ko'rilgan.

Ingliz va o'zbek tilidagi qo'shma gaplarni qiyoslab tadqiq etishda biz ingliz romanchiligining shoh asarlaridan biri Ernest Xemingueyning «A Farewell To Arms» va uning I.G'afurov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan «Alvido qurol» asarini ob'yekt qilib oldik.

Biz tanlagan manba ingliz tilida bir tarkibli qismi mavjud bo'lgan qo'shma gaplarning qo'llanishini tahlil qilar ekanmiz, ularning o'zbek tilidagi tarjimasiga ham imkoni boricha ahamiyat berdik. Dastavval, qo'shma gaplar tarjimasi va ulardagi farqni ko'rib chiqaylik unda tahlil quyidagicha bo'ladi.

2.1. Ingliz tili qo'shma gaplarining o'zbek tilida sintaktik

moslashishi.

« *There was fighting in the mountains and at night we could see the Flashes from the artillery*» (F.A. Ch.I 3p) (Compound sentence).

«Tog'da jang ketmoqdaydi, kechalari portlashlardan yulqinlar ko'tarilardi.» (A.Q. B.I 17-b).

I.G'afurov tomonidan qilingan bu tarjima mazmun jihatdan moslashgan, ingliz tilidagi bog'langan qo'shma gap (compound sentence) o'zbek tilida bog'lovchisiz qo'shma gap tarzida berilgan. Ikkinchi gapda ega bo'lib kelgan (we) o'zbekcha variantda qatnashmagan. Ingliz tilida vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan (the Flashes) o'zbek tilida ega bo'lib kelmoqda.

«*The town was very nice and our house was very fine.*» (F.A. ChII.

P4) (compound sentence).

«Shahar juda ajoyib, biz turgan uy esa juda chiroyli edi.» (A.Q. BII. 9-b). (bog'lovchisiz qo'shma gap).

Bu misolda ham ingliz tilida «and» bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gap o'zbek tili variantida bog'lovchisiz berilgan.

“It turned cold that night and the next day it was raining.” (F.A. Ch21. P99). (compound sentence).

«Kechasi sovuq bo'ldi, ertasiga yomg'ir yog'di.» (A.Q. B22. 151-bet). (bog'lovchisiz qo'shma gap).

Tarjima mahorat bilan qilingan, ammo I. G'afurov qo'shma gapning leksik-semantikasidan kelib chiqib tarjima qilganlar, ammo ularning bog'lanishiga e'tibor bermaganlar. Ingliz tilida bo'g'langan qo'shma gap, o'zbek tilida bog'lovchisiz qo'shma gapga o'zgargan.

«When I could go out we rode in a carriage in the park.» (F.A. Ch1S.PSO) (clause of time).

«Menga o'rindan turishga ijozat berganlaridan so'ng, biz bog'ga sayrga bora boshladik.» (A.Q. B18. 118-b) (payt ergash gapli qo'shma gap).

Bu gap tarjimasida ham xuddi yuqorida ko'rib o'tgan vaziyat, ingliz tilidagi payt ergash gapli qo'shma gap, o'zbek tiliga ba'zi kompanentlari qoldirilgan holda (in a carriage) payt ergash gapli qo'shma gap tarzida o'girilgan. Vaholangki bunda tarjimonning mahorati, til qoliplaridan ustun kelmoqda va ikki oilaga mansub bo'lgan tillar grammatik jihatdan to'liq bir-biriga mos kelishligi yana bir bor o'z isbotini topdi.

‘When I was awake after the operation I had not been away.»[F.A. Ch17. P77] (clause of time)

«Operatsiyadan so'ng uyg'onganimda o'zimni go'yo tubsiz bo'shliq ishra yo'q bo'lib ketayotganday sezdim.» [A.Q. B17. 114-b] (o'xshatish ergash gap).

Bu misolda ingliz tili variantida payt ergash gap o'zbek till variantida o'xshatish ergash gapli qo'shma gap tarzida berilgan.

«Someone came in (1), and as the door opened (2) I could see the snow faffing (3).»[F.A. Ch11. P6] (complex sentence).

«Allakim ichkariga kirdi (1), eshik ochilganida tashqarida hamon qor yog'ayotganini ko'rdim.» [A.Q. BIL 12-b] (aralash qo'shma gap).

Bu gapning ingliz tili variantida birinchi gap, ikkinchi va uchinchi gapda «and» teng bog'lovchisi yordamida bog'langan, ikkinchi va uchinchi gaplar payt ma'nosini anglatgan «as» ergashtiruvchisi yordamida bog'langan, ingliz tili variantida uchta sodda gap mavjud, tarjima qilingan o'zbek tili variantida esa ikkita sodda gap mavjud, ingliz tili variantida payt ergash gap ma'nosini anglatib kelgan «as the door opened» gapi, o'zbekchada murakkab payt holi bo'lib kelgan, original variantdagi uchinchi gap (I could see the snow falling) ikki asosga ega bo'lgan

bo'lsa, tarjimalari bir tarkibli, shaxsi ma'lum yoyiq (ergash gap bilan birgalikda) gap tarzida kelgan.

«There will be no more offensive now that the snow has come» I said. [F.A. Chll. P6]. (subordinate clauses).

« - Endi hujumga o'tmasak kerak, qor tushdi, dedim men. « [A.Q. BIT. 12b]. (bir tarkibli bog'lovchisiz qo'shma gap).

Ushbu misolda ingliz tilida berilgan **there will be** konstruksiyali ikki tarkibli sodda gap, o'zbek tilida, bir tarkibli shaxsi ma'lum sodda gap tarzida tarjima qilingan. Original gapdagi ega vazifasidagi «offensive» tarjimada vositali to'ldiruvchi (hujumga) bo'lib kelgan.

«I would like you to see Abruzzl and visit my family at Capracotto, said the priest? [F.A. Chll. P6] (compound sentence).

«Siz Abrussaga borib, Kaprakottaga mening qarindoshlarimnikida qo'noq bo'lsangiz deb edim, - dedi kashish.» [A.Q. BII. 12b]. (holat ergash gap).

Ushbu misolda birinchi gapda ega bo'lib kelgan «I» tarjimada qatnashmagan, vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan «you» tarjimada ega bo'lib kelgan, original variantdagi bog'langan qo'shma gap, tarjimada ergashgan qo'shma gapga aylangan.

I would like to go with you and show you things, the lieutenant said? [F.A. Chll. P7](compound sentence)

«Afsus, siz bilan birga borolmayman, hammasini o'zim ko'rsatgan bo'lardim, dedi leytenant.» [A.Q. BII. 13b] (bog'lovchisiz qo'shma gap).

Yuqoridagi gapda E.Xemingueyning ega sifatida qo'llangan «I», I.G'afurov tarjimasida tushirib qoldirilgan, originaldagi ikki tarkibli sodda gap (I would like to go with you...) tarjimada bir tarkibli gapga aylangan (siz bilan birga borolmayman;).

«You would like the people (1) and though it is cold (2) it is clear (3) and dry (4). «[F.A. Chll. P7] (compound and complex sentence).

«Odamlari juda ham ajoyib (1), qishi sovuq bo'lsayam(2), lekin have quruq va ochiq bo'ladi (3).» [A.Q. BII. 14b]. (aralash qo'shma gap).

Ingliz tili variantda to'rtta sodda gap berilgan, o'zbekchada uchta, ingliz tili variantda birinchi va ikkinchi gaplar «and» bog'lovchisi bilan, ikkinchi va uchinchi gaplar «though» ergashtiruvchi bog'lovchi bilan, uchinchi va to'rtinchi gaplar «and» teng bog'lovchi bilan bog'langan. O'zbek tili variantida esa birinchi, ikkinchi gaplar bog'lovchisiz, ikkinchi va uchinchi gaplar esa (-sa ham, lekin) bog'lovchilari bilan bog'lanayapti. Inglizcha variantidagi «You would like the people» sodda gapi o'rnida o'zbek tilida «odamlari juda ajoyib» gapi qo'llanilgan, **to'g'ri bu** ikki gap mazmun jihatdan bir-biriga juda yaqin lekin grammatik jihatdan umuman boshqa-boshqa narsalardir.

«*When I came back to the front we still lived in that town.*» [F.A. Chll. P7] (subordinate clauses of time)

«Men dam olib qaytganimda biz hamon o'sha-osha shaharda turardik.» [A.Q. BII. 13b] (payt ergash gap)

Bu gaplar o'rtasida grammatik farq yo'q.

«*The telescope that titled It was, I remembered, locked in the trunk?* [F.A. Chill. P8] (subordinate clause).

«Men uning nishonga oluvchi, teleskopini sandiqchaga berkitib qo'yganimni, esladim.» [A.Q. Bill. 15-b]. (sodda yoyiq gap).

Ingliz tilidagi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap (objective clause), o'zbek tilida sodda yoyiq gap tarzida ifodalangan.

«*He woke when he heard me in the room and sat up*» [F.A. Chill. P8] (complex sentence)

«Mening qadam tovushimni eshitib, u yostiqlan boshini ko'tardi.» [A.Q. Bill. 15-b] (ravish ergash gap)

Original variantdagi «He woke when he heard me in the room» gapi payt ergash gapli qo'shma gap, va «sat up» esa ularga bog'langan qo'shma gap. Biz shuning uchun bu gapni murakkab qo'shma gap deb tasvirladik bu gapda ham teng bog'lanish ham ergash bog'lanish mavjud. Tarjima varianti

«*We shook hands and he put his arm around my neck/? and hissed me.*» [F.A. Chill. P8] (compound sentence) . .

«Qo'l olishib ko'rishdik, keyin u meni bo'ynimdam quchoqlab o'pdi.» [A.Q. B III. 15-b] (bog'langan qo'shma gap)

Ushbu misoldagi «he put his arm around my neck and kissed me» gapi o'zbek tiliga tarjima qilinganda ravishdoshli yoyiq sodda gap tarzida berilgan. Semantikada o'zgarish yo'q.

«*Tell me really what was the best?*» [F.A. Ch III. P8] (Predicative clause)

«Eng zo'ri qaysi birida bo'ldi?» [A.Q. B III. 16-b] (sodda gap)

Kesim ergash gap sodda gap tarzida berilgan.

«*I had been in uniform a long time and I missed the feeling of being held by your clothes.*» [F.A. Ch 33. P173] (compound sentence)

«Uzoq harbiy kiyimida yurganimdan endi o'zimni juda o'ng'aysiz sezardim, egnim, shimim hadeb halpillab ketayotganday tuyulaveradi.» [A.Q. B34. 254-b] (bog'lovchisiz qo'shma gap)

Ingliz tilda «and» teng bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gap tarjimada bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gapga aylangan.

«*He was good-looking, was my age, and he came from Amalti.*» [F.A. Ch III. P9] (compound sentence)

«U Amalfida tug'ilgan, men bilan tengdosh, kelishgan yigit edi.» [A.Q. B III. 17-b]
(to'g'ridan to'g'ri bog'langan bir necha ergash gapli qo'shma gap)

Bu qo'shma gap tarjimasi va asl variantida sodda gaplarning o'rni almashgan, sodda gaplar bog'langan qo'shma gapdan ergashgan qo'shma gapga aylangan.

It had stopped raining but there was a mist: ' [F.A. Ch. 25. P124] (compound sentence)

«Yomg'ir tingan, lekin tuman tushgandi.» [A.Q. B 26. 185-b] (bog'langan qo'shma gap) . .

E.Xeminguey «***It had stopped raining but there was a mist***» deb yozgan, gapini I.G'afurov xuddi asl nusxadagidek bog'langan qoshma gap bilan ifodalaydi.

While I was looking at him he opened his eyes? [F.A. Ch III. P9] (clauses of time)

«Mening qarab turganimni sezib, u ko'zini ochdi.» [A.Q. B III. 17-b] (holat ergash gap)

Ingliz tilida payt ergash gapi bilan berilgan qo'shma gap, o'zbek tiliga holat ergash gapi bilan berilgan, bu ham tillar o'rtasidagi o'ziga xoslikning bir ko'rinishi.

«She was not in the garden (1) and I went to the side door of the villa (2) where the ambulances drove up (3)» [F.A. ChV. P16] (mixed composite sentence)

«Bog'da u ko'rinmadi (1), shuning uchun men sanitar mashinalar kelib-ketib turgan villa yonidagi eshikka bordim (2).» [A.Q. BV. 27-b] (sabab ergash gap)

Inglizcha variantdagi gap aralash turdagi qo'shma gap bo'lib birinchi va ikkinchi gaplar teng bog'langan, ikkinchi va uchinchi gaplar tobe munosabatda bog'langan, o'rin ergash gapli qo'shma gap, o'zbekchada bular aralash turdagi qo'shma gap, sabab ergash gapi tarzida ifodalangan, hamda teng bog'lovchi va teng bog'lanish tarjimada aks etmagan.

«You may come and see her after seven o'clock (1) If you wish (2)» [F.A. Ch V. P16] (conditional clause)

«Agar uni ko'rmoqchi bo'lsangiz (1), soat yettidan keyin kela qoling (2).» [A.Q. BV. 27-b] (shart ergash gap)

Bu misollarda shart ergash gap, shart ergash gap tarzida

tarjima qilingan, ammo sodda gap tarkibidagi so'zlar bosh gapdan ergash gapga o'tgan, bu o'zgarish gap semantikasiga ta'sir ko'rsatmagan.

«She did not seem tall walking toward me but she looked very lovely» [F.A. Ch VI. P21] (compound sentence)

«Qarshimga yurib kelayotganda unchalik bo'ydor bo'lib ko'rinmadi, lekin g'oyat dilbar edi.» [A.Q. B-VI. 35-b] (bog'langan qo'shmagap)

Original variantdagi gap bilan tarjimadagi gap bir-biriga ham ma'nan ham suratan to'liq mos keladi.

«I love you so and It's been awful» [F.A. Ch VI. P22] (compound sentence)

«Sizni shunday sevamanki, men shunday yomon ahvolga tushdimki.» [A.Q. B-VI. 36-b] (ikki aniqlovchi ergash gap)

Inglizcha variantda grammatik jihatdan to'liq shakllangan bog'langan qo'shma gap berilgan, tarjimasida esa tugallanmagan aniqlovchi ergash gap, ya'ni faqat, ikki bosh gap berilgan ergash gap yo'q.

1. ***I did not care what I was getting into***» [F.A. Ch VI. P22] (object clause)

«Men buning oqibati qanday bo'lishini o'ylab o'tirmasdim.» [A.Q. B.VI. 37-b] (yoyiq sodda gap)

2. ***I knew I did love Catherine Barkley nor any idea of loving her.***» [F.A. Ch VI. P23] (object clause)

«Men Ketrin Barklini yaxshi ko'rmaganimni, yaxshi ko'rib qolish niyatim ham yo'qligini bilardim.» [A.Q. B.VI. 37-b] (bir necha to'ldiruvchili yoyiq sodda gap)

3. ***Nobody had mentioned what the stakes were***» [F.A. Ch VI. P23] (predicative clause)
«O'yin nima badaliga o'ynalayotgani haqida bir og'iz ham gap bo'lmadi.» [A.Q. B.VI. 37-b] (shaxsi ma'lum gap)

4. ***I wish there was some place we could go.***» [F.A. Ch VI. P23] (complex sentence)

«Qayoqqa borsak ekan.» [A.Q. B.VI. 37-b] (shaxsi ma'lum gap)

Yuqorida keltirilgan to'rt gapda ham barcha ingliz till variantlari qo'shma gap, grammatik jihatdan to'liq shakllangan, mazmunan tugallangan gaplardir. Ammo tarjimada yoyiq sodda gap yoki bir tarkibli shaxsi ma'lum gap tarzida ifodalangan, mazmunan uncha o'zgarmagan bo'lsada, grammatik jihatdan umuman o'zgargan.

We sat on the stone bench and I held Catherine Barkley's hand.» [F.A. Ch VI. P23] (compound sentence)

«Biz yopasqi tosh o'rindiqqa o'tirdik, men Ketrin Barklining qo'lini tutdim.» [A.Q. B.VI. 37-b] (bog'lovchisiz qo'shma gap)

Original shakl «and» bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gap, tarjima esa bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap tarzida berilgan.

And you play it as well as you know how.» [F.A. Ch.VI. P23] (clauses of Manner and Comparison)

«Shuning uchun siz iloji boricha yaxshiroq o'ynashga urinayapsiz.» [A.Q. B.VI. 37-b]

Bu gap original variantda o'xshatish ergash gap tarzida berilgan, tarjimada esa oldingi gap bilan birgalikda sabab ergash gap tarzida berilgan.

You 've a nice boy» she said. ***And you play it as well as you know how.***» [F.A. ChVI.P23]

«Siz ajoyibsiz, - dedi u, - shuning uchun siz iloji boricha yaxshiroq o'ynashga urinayapsiz.» [A.Q. B.VI. 37-b]

Because the captain doctor knew I had this vupture» [F.A. Ch VII. P26] (causal clause)

«Gap shundaki bosh vrach churram tushganligini biladi.» [A.Q. B.VII. 41-b] (kesim ergash gap) .

-

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'rin almashgan, sabab ergash gap, kesim ergash gapga aylangan.

«*If I was closer to the front I could take you to a first medical post*» [F.A. Ch VII. P26] (conditional clauses)

«Biz frontga yaqin borganimizda, sizni birinchi tez yordam punktiga topshirgan bo'lardim.» [A.Q. BVII. 41-b] (bog'lovchisiz qo'llangan shart ma'nosidagi gap)

Bog'lovchini hisobga olmaganimizda unchalik farq yo'q.

1. «*I think it will be over soon.*» [F.A. Ch 25. P124] (object clause) «Urush tez oradatugab qolar.» [A.Q. B.26. 185-b] (sodda gap)

2. «*I remembered where I was going*» [F.A. Ch VII. P29] (clause of place)

«Qayoqqa ketayotganim esimga tushib ketdi.» [A.Q. B.VII. 47-b] (shaxsi ma'lum gap)

Yuqoridagi ikki gapda ham qo'shma gaplar tarjimada sodda gaplarga aylanmoqda.

1. «*We walked along together through the town and I chewed the coffee.*» [F.A. Ch VII. P30] (compound sentence)

«Ikkiyolon shahar bo'ylab ketdik, men qahva donini chaynab bordim.» [A.Q. B.VII. 48-b] (bog'lovchisiz qo'shma gap) (compound sentence)

«O'rnimdan turdim, biroq bu Ketrin emasdi.» [A.Q. B.VII. 48-b] (bir tarkibli qo'shma gap)

3. «*I hope she's not ill.*» [F.A. Ch VII. P30] (clauses of Purpose)

«Hoynahoy betob emasmi?» [A.Q. B.VII. 49-b] (shaxssiz sodda gap)

Tadqiqot ob'yekti bo'lgan bu uch gapning tarjima va original variantlarini qiyoslaganimizda (1) gapda bog'langan qo'shma gapning, bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap tarzida berilishini, (2) gapda bog'langan qo'shma gapning bir tarkibli qismli qo'shma gap shaklida berilganligini hamda (3) misolda maqsad ergash gapli qo'shma gapning shaxssiz sodda gap shaklida berilganligini ko'ramiz. (3) misol ingliz tili variantida ikki ega qatnashgan, gap to'liq shakllangan, ammo o'zbek tili variantida esa birorta ham ega ishtirok etmagan, hamda darak gap, so'roq gap shaklida tarjima qilingan.

«*I felt him in his metal box against my chest while we drove.*» [F.A. Ch VIII. P32] (clause of time)

«Mashinada o'tirar ekanman, ko'kragimga uning metall g'ilofi suykalib borardi.» [A.Q. B.VIII. 51-b] (payt ergash gap)

Gaplar har taraflama mos, faqat tarjimada sodda gaplar o'rni almashgan xolos.

«*After I was wounded I never found him.*» [F.A. Ch VIII. P32] (clause of time)

«Ko'p o'tmay u esimdan chiqdi.» [A.Q. B.VIII. 51-b] (bir tarkibli qismli qo'shma gap)

Payt ergash gapi birinchi misolda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa keyingi misolda esa faqat mazmunga e'tibor qilinib bir tarkibli qo'shma gap tarzida o'girilgan.

1. ***‘I went with him and found the dugout which was very good.’*** [F.A. Ch. IX. P34]
(attributive clause)

«Soldat bilan sal yurmasimizdan shinamgina bilindaj ustidan chiqdik.» [A.Q. B. IX. 54-b]
(sodda yoyiq gap)

2. ***«The drivers were pleased with It and I left them there.»*** [F.A. Ch. IX. 34-b] (compound sentence)

«Shafyorlar undan mamnun bo’lishdi, ularni shu yerda qoldirdim.» [A.Q. B.IX. 54-b] (bir tarkibli bog’lovchisiz qo’shma gap). Birinchi misolimiz original shakldagi aralash turdagi qo’shma gapni, tarjimada yoyiq sodda gap shaklida bergan, ikkinchi gapda esa grammatik jihatdan to’liq shakllangan bog’langan qo’shma gapni, bir tarkibli qismli bog’lovchisiz bog’langan qo’shma gap shaklida o’giran, bu albatta timing irnkoniyyati kengligidan dalolat beradi.

1. ***«It was a hot day and there were many flies away’»*** [F.A. Ch.10. p46] (compound sentence)

«Kun issiq, xona pashsha bilan to’la edi.» [A.Q. B.IO.Tlb] (bog’lovchisiz bog’langan qo’shma gap)

2. ***«It was very hot and when I wohe my legs Itched.»*** [F.A. Ch. 10. p46] (clause of time)

«Kun juda isib ketdi, uyg’onganimda, oyoqlarim qichishardi.» [A.Q. B.10.72b] (murakkab qo’shma gap)

3. ***«I waked the orderly and he poured mineral water on the dressings.»*** [F.A. Ch.10. p46] (compound sentence)

«Men vestovoyini uyg’otdim va u yaralarimga mineral suv quydi.» [A.Q. B.10. 72-b] (bog’langan qo’shma gap)

4. ***“ I saw he wore gloves?”*** [F.A. Ch.10. p47] (object clause) «Men u qo’lqop kiyganini payqadim.» [A.Q. B.10. 72-b] (murakkab to’ldiruvchili sodda yoyiq gap)

5. ***«I think we can get you the silver»*** [F.A. Ch.10. p47] (object clause)

«Nima bo’lganda ham, biz kumush bo’lishiga harakat qilamiz.» [A.Q. B.10. 72-b] (to’siqsiz ergash gap)

Yuqoridagi misollarda, qo’shma gaplar tarjima qilinayotganda, beshta qo’shma gapga besh xil yo’l tutilgan: birinchi va ikkinchi gaplar tarjimasida «and» bog’lovchisi qoldirib ketilgan bo’lsa, uchinchi gapda to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilingan, to’rtinchi gapda gap grammatik asosi butunlay o’zgarib ketgan, beshinchi gapda to’ldiruvchi ergash gap to’siqsiz ergash gapga o’zgargan. To’rtinchi gapda qo’shma gap, sodda gapga aylangan bo’lsa, beshinchi gapda, qo’shma gap boshqa ma’nodagi qo’shma gapga aylangan, ya’ni, «I think» (Men o’ylaymanki) gapi, «Nima bo’lganda ham» gapi bilan almashtirilgan.

1. ***«/ am positive you will get the silver.»*** [F.A. Ch.10. p48] (objective clause)

«Siz kumush olishingizga ishonaman.» [A.Q. B.10. 73-b] (bir tarkibli murakkab to'ldiruvchili sodda gap)

2. «***I Just go to see if there is anything new.***» [F.A. Ch.10. p48] (conditional clause)

«Faqat ba'zan biron yangi gap bormikan, ...» [A.Q. B.10. 74-b] (sodda gap) bu gap inglizcha variantda alohida kelgan «I stop by» gapi bilan. «faqat ba'zan biron yangi gap bormikan, deb kirib o'taman.» [A.Q. B.10. 74-b] maqsad ergash gap tarzida keladi.

3. «***I don't think it will hurt you, baby.***» [F.A. Ch.10. p49] (object clause without conjunction)

«Bu sizga ziyon qilmaydi, bebi.» [A.Q. B.10. 75-b] (sodda gap)

4. «***/ drank the cognac and felt It warm all the way down***» [F.A. Ch.10. p49] (compound sentence without conjunction)

«Men konjakni ichib, butun a'zoyi badanimga issiqlik yugurayotganini his qilib turdim.» [A.Q. B.10. 75-b] (ravish ergash gap)

5. «***I wish you were back***» [F.A. Ch.10. p49] (object clause) «Tezroq tuzaling-da, ishqilib» [A.Q. B.10. 75-b] (sodda gap)

Bu besh gap tarjimasida ham oldingi misollardagi holat kuzatilgan, birinchi misolda; bog'lovchisiz bog'langan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, o'zbek tiliga bir tarkibli murakkab to'ldiruvchili sodda gap tarzida, ikkinchi misolda; shart ergash gap (real) o'zi sodda gap tarzida, keying! gap bilan birgalikda, maqsad ergash gap tarzida, uchinchi va beshinchi gaplar (that) bog'lovchisiz to'ldiruvchi ergash gap sodda gap tarzida, to'rtinchi gap esa bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap bo'lib o'zbek tiliga ravish ergash gapli qo'shma gap tarzida o'girilgan.

1. «We are brothers and we love each other.» [F.A. Ch.10. p49] (compound sentence)

«Biz siz bilan og'a-inidekmiz, bir-birimizni yaxshi ko'ramiz.» [A.Q. B.10. 76-b] (bog'lovchisiz qo'shma gap)

2. «***If you must have a priest have that priest***» [F.A. Ch.10. p49] (conditional clause)

«Sizga ruhoniy kerak bo'lsa, biznikini ola qoling.» [A.Q. B.10. 75-b] (shart ergash gap)

3. «***If was dush when the priest came,¹***» [F.A. Ch.11. p50] (clause of time)

«Kashish kirganda, shorn qorong'isi tushib qolgandi.» [A.Q. B.11. 77-b] (payt ergash gap)

4. «***I am so glad you are all right***» [F.A. Ch. 11. p50] (object clause without conjunction)

«Dardingiz yengil ko'chganidan xursand bo'ldim.» [A.Q. B.11. 77-b] (murakkab to'ldiruvchili sodda gap)

5. «***I hope you don't suffer***» [F.A. Ch.11. p51] (object clause without conjunction)

«Qattiq og'rimayaptimi?» [A.Q. B.11. 78-b] (so'roq gap)

Bu beshlikda, birinchi gap teng bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gap bo'lib, bog'lovchisiz qo'shma gap tarzida, ikkinchi gap, shart ergash gap - shart ergash gap tarzida, uchinchi misolda payt ergash gap -payt ergash gap tarzida, to'rtinchi misolda **bog'lovchisiz**

to'ldiruvchi ergash gap, sodda gap tarzida, beshinchi misolda, bog'lovchisiz to'ldiruvchi ergash gap bir tarkibli sodda so'roq gapga o'zgargan.

1. «*He seemed very tired and I was not used to see him tired*» [F.A. Ch.11. p51] (compound sentence)

«U g'oyatda holdan toygan kabi korinardi, men uni bu ahvolda birinchi ko'rib turishim **edi**.» [A.Q. B.I 1. 78-b] (o'xshatish ergash gap)

2. *I wish I were there*» [F.A. Ch.11. p51] (object clause without conjunction)

«O'zim ham tezroq qayta qolsam deymen.» [A.Q. B.11. 78-b] (sodda gap)

3. «*Afterwards he hold the glass in his hand and we looked at one another.*» [F.A. Ch.I 1. p51] (compound sentence)

«Keyin u stakanni qo'lida ushlab **turdi** va biz bir-birimizga tikilib qoldik.» [A.Q.B.11.79-b]

4. *I am tired but I have no right to her* [F.A. Ch.11. p51] (compound sentence)

«Men charchadim, lekin meni charchashga haqqim **yo'q**.» [A.Q. B.I 1. 79-b] (bog'langan qo'shma gap)

5. «*I know you are wounded*» [F.A. Ch.11. p52] (object clause without conjunction)

«Bilaman, siz yaralangansiz.» [A.q. B.11. 79-b] (bir tarkibli bog'lovchisiz to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap)

Bu misollarning birinchisida bog'langan qo'shma gap ergashgan qo'shma gapga, ikkinchisida, bog'lovchisiz to'ldiruvchi ergash gap **soda** gapga, uchinchisida esa bog'langan qo'shma gap bog'langan qo'shma gapga, to'rtinchisida bog'langan qo'shma gap bog'lovchisiz qo'shma gapga, beshinchisida bog'lovchisiz to'ldiruvchi ergash gap bir tarkibli qismli bog'lovchisiz to'ldiruvchi ergash gapga o'zgargan.

1. *I was sick and Catherine was right.* [F.A. Ch.17. p78] (compound sentence)

«Ko'nglim aynab turardi, Ketrin haq bo'lib chiqdi.» [A.Q. B.I7.

114-b] (bog'lovchisiz qo'shma gap)

2. «*It did not make any difference who was on night duty?* [F.A. Ch.17. p78] (subject clause)

\S

«Tunda kim navbatchilik qilishi menga baribir bo'lib qoldi.» [A.Q. B.17. 114-b](soddagap)

3. «*Catherine Barkley was greatly liked by the nurses because she would do night duty indefinitely.*» [F.A. Ch.17. p78] (causal clause)

«Ketrin Barkli tunlari istagancha navbatchilik qilishga doim **rozi** bo'lganidan u hamma hamshiralarga juda yoqib qolgandi.» [A.Q. B.17.

115-b] (sabab ergash gap)

4. «*I loved her very much and she loved me*» [F.A. Ch.17. p78] (compound sentence)

«Men uni qattiq sevardim, u ham meni sevardi.» [A.Q. B.17. 115-b] (bog'langan qo'shma gap)

5. «*I hope you'll be all right*» [F.A. Ch.17. p78] (object clause without conjunction)

«Shoyad ishingiz yaxshi bo'lib ketsa.» [A.Q. B.17. 116-b] (kiritmali, sodda gap)

6. «*You'll fight before you'll marry.*» [F.A. Ch.17. p78] (clause of time) «Yo urushib qolasiz, yo o'lasiz.» [A.Q. B.17. 116-b] (bog'langan qo'shma gap)

Keltirilgan misollarning birinchisida asl nusxada faqat ega va kesimdan iborat bo'lgan bog'langan qo'shma gap bir tarkibli qismli bog'lovchisiz qo'shma gap tarzida, ikkinchisida ergash gapli qo'shma gap, ega harakat nomi bilan ifodalangan yoyiq sodda gap tarzida, uchinchisida sabab ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gap tarzida, to'rtinchisida esa bog'langan qo'shma gap bog'langan qo'shma gap tarzida, beshinchisida esa bog'lovchisiz to'ldiruvchi ergash gap, kiritmali sodda gap tarzida tarjima qilingan, oltinchi misoldagi payt ergash gap, ma'nosi o'zgargan holda bog'langan qo'shma gap tarzida tarjima qilingan.

Mana shu bir qancha misollar orqali ingliz tili qo'shma gaplari qanday tarzda berilishi va tarjimada uning ifoda shakllari qanday bo'lishi yuqoridagi bandlarda qisman ko'rib o'tildi. Tarjima nazariyasi masalalariga bag'ishlangan yirik asar yozgan G'Salomovning «Tarjima nazariyasi asoslari» asarida «Sintaksis va tarjima» [24] bandida tarjimalarning mahorati-yu kamchiliklari, har bir so'z, tafsilot va detalni iloji boricha aks ettirishga harakat qilgani haqida yozadi. «Har bir so'z, tafsilot va detalni iloji boricha aks ettirish» ancha mushkul, chunki bu uslub imkoniyati-yu, tarjimon mahoratiga bog'liq. Shunga qaramay, ingliz tili qo'shma gaplari va ularning o'zbekcha variantlarining qiyosiy tahlilida ba'zi bir hollarda duch kelindiki, quyida bu haqda qisqacha fikr yuritamiz:

1. Ingliz tilida «and» bog'lovchisi bilan bog Ma nib kelgan qo'shma gap, o'zbek tilida bo'linadi:

a) bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap tarzida berildi.

1)» *We sat on the stone bench and I held Catherine Barhley's hand*» [F.A. Ch VI. P23] (compound sentence)

«Biz yopasqi tosh o'rindiqqa o'tirdik, men Ketrin Barklining qo'lini tutdim.» [A.Q. B.VI. 37-b] (bog'lovchisiz qo'shma gap)

2)» *We walked along together through the town and I chewed the coffee*» [F.A. Ch VII. P30] (compound sentence)

«Ikkovlon shahar bo'ylab ketdik, men qahva donini chaynab bordim.» [A.Q. B.VIL 48-b] (bog'lovchisiz qo'shma gap)

3)» *It was a hot day and there were many flies awa\$F* [F.A. Ch.10. p46] (compound sentence)

«Kun issiq, xona pashsha bilan to'la edi.» [A.Q. B.IO.Tlb] (bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap)

a) Sodda gap bilan ifodalandi.

«*I wish I were there*» [F.A. Ch.II. p51] (object clause without conjunction)

«O'zim ham tezroq qayta qolsam deymen.» [A.Q. B.II. 78-b] (sodda gap)

b) o'zidan keyin kelgan sodda gap bilan birga ergashgan qo'shma gapga aylanadi.

«*I just go to see If there is anything new. I stop by.*» [F.A. Ch.10. p48] (conditional clause with another simple sentence)

«Faqat ba'zan biron yangi gap bormikan, deb kirib o'taman.» [A.Q. B.10. 74-b] (maqsad ergash gap)

2. Ingliz tilidagi ega ergash gap o'zbek tiliga sodda gap tarzida ifodalanadi.

«*It did not make any difference who was on night duty.*» [F.A. Ch.17. p78] (subject clause)

«Tunda kim navbatchilik qilishi menga baribir bo'lib qoldi.» [A.Q. B.I7. 114-b] (sodda gap)

3. Ingliz tilidagi qo'shma gap o'zbekchada bir tarkibli sodda so'roq gapga o'zgartirilishi mumkin.

1)»*lhope she's not ill.*» [F.A. Ch VII. P30] (clauses of Purpose)

«Hoynahoy betob emasmi?» [A.Q. B.VII. 49-b] (shaxssiz sodda so'roq gap)

2)»*I hope you don't suffer*» [F.A. Ch.II. p51] (object clause without conjunction)

«Qattiq og'rimayaptimi?» [A.Q. B.I 1. 78-b] (so'roq gap)

4. Ingliz tilida payt ergash gap, o'zbek tiliga bog'langan qo'shma gap tarzida tarjima etilgan.

«*You'll fight before you'll marry.*» [F.A. Ch.17. p78] (clause of time)

«Yo urushib qolasiz, yo o'lasiz.» [A.Q. B.17. 116-b] (bog'langan qo'shma gap)

5. Ingliz tilidagi «I hope», «I wish» va «I think» kabi sodda yig'iq gaplari bilan boshlangan bog'lovchisiz to'ldiruvchili ergash gap, o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi:

(a)murakkab to'ldiruvchili sodda gap tarzida

1) *I knew I did love Catherine Barkley nor any idea of loving her.*» [F.A. Ch VI. P23] (object clause)

«Men Ketrin Barklini yaxshi ko'rmaganimni, yaxshi ko'rib qolish niyatim ham yo'qligini bilardim.» [A.Q. B.VI. 37-b] (bir necha to'ldiruvchili yoyiq sodda gap)

2)»*I saw he wore gloves*» [F.A. Ch.10. p47] (object clause) «Men u qo'lqop kiyganini payqadim.» [A.Q. B.10. 72-b] (murakkab to'ldiruvchili sodda yoyiq gap)

3)»*I am so glad you are all right*» [F.A. Ch.II. p50] (object clause without conjunction)

«dardingiz yengil ko'chganidan xursand bo'ldim.» [A.Q. B.II. 77-b] (murakkab to'ldiruvchili sodda gap)

«*I wish I were there*» [F.A. Ch.II. p51] (object clause without conjunction)

«O'zim ham tezroq qayta qolsam deyman.» [A.Q. B.II. 78-b] (sodda gap)

(b) sodda so'roq gap

«*I hope you don't suffer*» [F.A. Ch.II. p51] (object clause without conjunction)

«Qattiq og'rimayaptimi?» [A.Q. B.I 1. 78-b] (so'roq gap)

c) bir tarkibli qismli ergash gapli qo'shma gap tarzida

1) «*I am positive you will get the silver:*» [F.A. Ch.10. p48] (objective clause)

«Siz kumush olishingizga ishonaman.» [A.Q. B.10. 73-b] (bir tarkibli murakkab to'ldiruvchili sodda gap)

2) «*I know you are wounded*» [F.A. Ch.II. p52] (object clause without conjunction)

«Bilaman, siz yaralangansiz.» [A.q. B.II. 79-b] (bir tarkibli bog'lovchisiz to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap)

d) kiritmali sodda gap tarzida

«*I hope you'll be all right*» [? A. Ch.17. p78] (object clause without conjunction)

«Shoyad ishingiz yaxshi bo'lib ketsa.» [A.Q. B.17. 116-b] (kiritmali, sodda gap)

6. Ingliz tilida o'rin ergash gap o'zbek tiliga shaxsi ma'lum gap tarzida beriladi:

I remembered where I was going» [F.A. Ch VII. P29] (clause of place)

«Qayoqqa ketayotganim esimga tushib ketdi.» [A.Q. B.VII. 47-b] (shaxsi ma'lum gap)

7. Ingliz tilidagi kesim ergash gap o'zbek tilida sodda gap tarzida beriladi:

«*Tell me really what was the best*» [F.A. Ch III. P8] (Predicative clause)

«Eng zo'ri qaysi birida bo'ldi?» [A.Q. B III. 16-b] (sodda gap).

8. Ingliz tilidagi payt ergash gap o'zbek tilida holat ergash gap tarzida beriladi:

«*While I was looking at him he opened his eye*» [F.A. Ch III. P9] (clauses of time)

«Mening qarab turganimni sezib, u ko'zini ochdi.» [A.Q. B.II. 17-b] (holat ergash gap)

Tahlillardan korinib turibdiki, ingliz tilidagi gaplar, o'zbekchadagi variantlarining qo'llanishida o'ziga xos xususiyatlari bor, lekin ularning ishlatilishi muallif fikrlarini to'la-to'kis ifodalashga xizmat qiladi.

2.2. Qo'shma gaplar tarjimasida semantik moslashish.

Tarjima qiyinchiliklari faqat lisoniy farqlar bilangina belgilanmaydi. Ba'zan yangi tillardan tarjima qilish muammosi uzoq tillar tarjimasinikiga qaraganda ham murakkabroq bo'ladi. Tarjima qiluvchi yoki tarjima qilinuvchi tillar bir-biridan leksik-grammatik, strukturaviy tarafdin yiroq bo'sa-da, ularda mavzu, adabiy an'ana, ikki tilning madaniy **OJL**

taraqqiyot bosqichi nuqtai-nazardan yaqinlik, umumiylik, hamohanglik, mushtaraklik sezilgan taqdirda, tarjima muammosi muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyati tug'iladi.

Maktabdosh, uslubdosh ijodkorlar bir-birlarining asarlarini tarjima qilganlarida chinakam san'at namunalarini yaratishlari mumkin. Badiiy tarjimachilik amaliyotida bu to hozirgacha tipik hoi sanaladi.

Til badiiy asarning muhim shakl ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tarjimada ana shu bosh omil o'zgaradi, bir til o'rnini boshqa til egallaydi, til o'zgarishi barobarida ba'zan **uslubiy siljish** hodisasi yuz beradl. Ko'p hollarda tarjimonning o'zi ongli tavishda, ko'ra-bila turib bunga yo'l qo'yadi, undan tadbir sifatida foyadalanadi.

«I hope she's not ill.» [F.A. Ch.7. p30]

«Hoynahoy betob emasmi?» [A.Q. B.7. 49-b]

«I think we can get you the silver.» [F.A. Ch.10. p47]

«Nima bo'lganda ham, biz kumush bo'lishiga harakat qilamiz.» [A.Q.B.10. 73-b]

Bunday hollarda stilizatsiya, ya'ni uslubiy moslashtirish hodisasi qalqib chiqadi. Maqsad tarjima qilinayotgan asar voqealarning tasvir va bayon tarzida o'quvchilarni ishontirish, buning tabiiyligida unda shubha qoldirmaslikdir, ammo bemaqsad qo'llangan bunday moslashtirish tasvir maromining tabiiyligi o'rniga, aksincha, noo'xshovlik, nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Tarjimada asarning shakl xususiyatlari ahamiyatsiz, ularni e'tiborsiz qoldirsa ham bo'laverarkan, deb o'ylash xato. Durust tarjimada asl nusxaning formal mantiqiy-grammatik ko'rsatkichlari, so'z birikmalarining kategorial belgilari, tur, tus, mayl, jins ko'rsatkichlari emas, balki ular vositasida ifodalangan fikr ma'no yetakchilik qiladi. Zero bunda muayyan so'z turkumlari yoki gap bo'laklari tamomila bo'lak grammatik unsurlar, kategoriyalar bilan ifodalanishi ham mumkin. [20]

«After I was wounded I never found him» [F.A. Ch.8. p32] «Ko'p o'tmay u esimdan chiqdi.» [A.Q. B.8. 51-b]

« We are brothers and we love each other» [F.A. Ch. 10. p49] «Biz siz bilan og'a-inidekmiz, bir-birimizni yaxshi ko'ramiz.» [A.q. B.10. 76-b]

«I wish you were back.» [F.A. Ch. 10. p49] «Tezroq tuzaling-da, ishqilib» [A.Q. B.10. 75-b] .

«You'll fight before you'll marry?» [F.A. Ch.17. p78] «Yo urushib qolasiz, yo o'lasiz.» [A.Q. B.17. 116-b]

«I felt him in his metal box against my chest while we drove.»¹ [F.A. Ch VIII. P32]

«Mashinada o'tirar ekanman, ko'kragimga uning metall g'ilofi suykalib borardi.» [A.Q. B.VIII 51-b]

Asl nusxada u yoyiq gapmi yoki yig'iq gapmi, sodda gapmi yoki qo'shma gapmi, darak, so'roq yoki undov gapmi - bularning hammasi, ya'ni, umuman grammatik shakl shu gaplar vositasida bayon qilinayotgan mazmun yoinki ifoda etilayotgan fikr bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Gap qurilishi asl nusxaga nisbatan ma'him darajada muvofiq grammatik tarkib bilan beriladimi, yo bo'lmasa uning sintaktik qurilmasini sindirib, parchalab yuboriladimi - asl nusxa

uslubning nechog'lik ,to'g'ri aks ettirilishi shunga ham bog'liq bo'lib qoladi. Buni hech qachon shaklbirlik, formalizm bilan qorishtirmaslik kerak.

XIX asrda Ch.Dikkins asarlarini rus tiliga o'g'irgan tarjimon bu yozuvchining asarlariga xos bo'lgan takrorlarni ko'pincha oqibatsiz qoldirganlar. K.I.Chukovskiy «bunday takrorlar yozuvchining uslubi uchun juda muhim, ularni tarjimada bermaslik esa Dikkins uslubiga xiyonat qilish bilan barobar,» deb qaraydi. [К.Чуковский Высокое искусство. М.,1964, 157-158]]

A.V.Fdorovning fikricha, «nasriy asarlarni o'girishda tarjimon maromni aks ettirish muammosiga tez-tez duch kelib turadi. Biroq har bir yozuvchi asarida aks etgan bunday xususiyat o'sha tilning leksik-fonetik, grammatik-struktural vositalariga asoslangan bo'ladiki, tarjima jarayonida ularni ko'r-ko' rona ko 'chiraverish yaramaydi. Tarj imada har bir yozuvchining o'ziga xos uslubini boshqa tilning imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta yaratish darker.» [А.В.Федоров.Основы общей теории перевода. М., 1968, стр.337-340]

I.G'afurov «Alvido Qurol» tarjimasida jumla tuzilishi tarovatini ma'noga xalal yetkazmaslik sharti bilan ifodalashning juda yaxshi namunalarini bergan.

“The summer went that way. I do not remember much about the days, except that they were hot and that there were many victories in the papers. I was very healthy and my legs healed quickly so that it was not very long after I was first on crutches before I was through with them and walking with a cane. Then I started treatments at the Ospedale Maggiore for bending the knees, mechanical treatments, baking in the box of mirrors with violet rays, massage and baths. I went over there afternoons, and afterward stopped at the cafe and had a drink and read the papers. I did not roam around the town; but wanted to get home to the hospital from the cafe. AH I wanted was to see Catherine» [E.Xemingway «A Farewell to Arms» Ch.19. p84]

«Yoz shunday o'tdi. U kimlar ko'p ham esimda yo'q, faqat havojuda issiq bo'lgani-yu gazetalarning g'alaba xabarlarini bilan to'lganligi yodimda qolgan. Mening mucham juda sog'lom edi, jarohatlarim tez bita boshladi. Qo'ltiqayoq bilan ikki-uch kirn yurmasimdanoq, keragi bo'lmay qoldi va men hassa tutib yura boshladim. O'shanda men **Ospedale Maggiorega** qatnab, tizzamni egib-bukishni mashq qila boshladim. Harakat terapiyasi, oyna qutiga binafsha nurlariga oyoqni solish, massaj qilish, vanna qabul qilish kabilarni bajara boshladim. Men u yerga peshindan keyin borardim, qaytishda qahvaxonaga kirib, vino ichib, gazeta o'qirdim. Shahar aylanib yurmasdim, qahvaxonadan to'g'ri gospitalga qaytgim kelaverardi. Ketrinni ko'rsam bo'ldi edi.» [E.Xemingueyning «Alvido Qurol» I.G'ofurov tarjimasi, 19-bob, 124-bet]

Inglizcha asl nusxasidagi yettita gapdan iborat bu bir yaxlit parcha o'zbek tilida to'qqizta gap bilan juda mohirona ag'darilgan. Masala so'zlarning miqdorida emas balki, fikrning yahlitligi, mazmunning teranligi, tabiiy ravishda jaranglayotganidadir. Garchi shunday ekan bir tildan boshqa bir tilga badiiy asar tarjima qilinayotganda, gaplarning grammatik qurilishiga emas, yoki

undagi gaplar soniga emas, asar egasining badiiy uslubiy vositalaridan voz kechmagan holda mazmundan kelib chiqishi kerak. Shu sababli matn tarkibidagi tadqiqot ob'yektimiz bo'lgan qo'shma gap sodda gapga yoki alohida-alohida qo'llangan bir nechta sodda gap qo'shma gap tarzida berilishi mumkin. Bu masala ishning shu bobida misollar asosida ko'rib chiqildi.

Xulosa

Ingliz tilida qo'llangan qo'shma gaplar mohiyatan boshqa tillarda qo'llangan qo'shma gaplardan farq qilmaydi. Qo'shma gaplardan foydalanishda badiiy uslubda imkoniyat keng. E.Xemingueyning «Alvido Qurol» asarida ham qo'shma gaplarning qo'llanish doirasi tor emas.

Bu asarda qo'shma gaplarning teng va tobe tarkibli tipik turlari keng qo'llangan. Ayniqsa, keng bog'lovchili qo'shma gaplarning kelishi diqqatga sazovor. Muallif ulardan unumli va juda o'rinli foydalangan.

Bog'langan qo'shma gap matn yaxlitligi asosida o'zidan keyin kelgan alohida gap sifatida qo'llangan sodda gap bilan birgalikda, ergashgan qo'shma gap tarzida o'girilishi ham diqqatga sazovordir.

Tobe tarkibli to'ldiruvchi ergash gapning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda uning mazmunidan kelib chiqib murakkab to'ldiruvchili qo'shma gap sodda so'roq gap, bir tarkibli qismli ergash gapli qo'shma gap, yoki kiritmali gap bilan tarjima qilish imkonligi ko'rib o'tildi.

Ingliz tilida berilgan payt regash gap, bog'langan qo'shma gap tarzida tarjima qilingani, o'rin ergash gapning bir tarkibli shaxsi noma'lum gap tarzida, kesim ergash gap holat ergash gap tarzida, ega ergash gap o'zbek tilida sodda gap tarzida ifodalangani ham e'tibordan chetda qolmadi.

Qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari son jihatdan har-xil bo'lib, uch qismli gaplar ko'proq qo'llangan.

Qiyoslanayotgan tillardagi qo'shma gaplarda muallif fikri aniq va lo'nda tarzda ifodalangan. Ko'pincha muammolarning qo'yilishi va ularning yechimi shu kabi gaplar yordamida beriladi. Shuningdek, qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar ham har-xil (yuklama, bog'lovchi, nisbiy so'zlar).

Umuman olganda, ingliz tilidagi bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarning o'zbek tilida berilishi, ularning boshqa qismlar bilan bog'lanish masalasi, qismlar tarkibida uyushiq bo'laklarning kelishi, ingliz tilli qo'shma gap qurilishi qolipi asosida ikki tarkibli grammatik jihatdan to'liq shakllangan gaplarning o'zbek tiliga sodda gap tarzida berilishi, bog'langan, bog'langan qo'shma darak gapning matn mazmunini saqlash maqsadida, sodda bir tarkibli so'roq gap tarzida kelishi kabi masalalar ko'rib chiqildi, bu gaplar tarkibida uyushiq kesimlar va uyushgan gaplarning qo'llanishini tadqiq etish qiziqarli masalalardandir.

Umumiy xulosa

1. Qo'shma gaplarning talqini va tasnifi masalasi o'zbek va xorijiy tillarda turli asos hamda tamoyillarga ko'ra tadqiq etilgan. Keltirilgan hamma tasnif (turli tillar grammatikalarida berilgan)larda ham sodda gap asosiga ega olingan. Shuning uchun tasniflar ko'p bo'lsa-da, ular o'xshashdir. Vaholanki, har bir til, ayniqsa, bar xil oilalarga mansub tillar o'z xususiyatlariga ega va ularni bir-biriga singdirish mumkin emas.

2. Ingliz o'zbek va olimlarining qo'shma gap masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlari tahlili berilgan. Tasniflar haqida fikr yuritilar ekan, ularda qo'shma gapning turli belgilariga aralash holda tayanilganlik ko'rsatilgan: struktur semantik, leksik, morfologik belgilari va qismlarning o'zaro bog'lanish xarakteriga (ya'ni bog'ovchilar va b. Grammatik vositalarining qo'llanishiga (qo'llanmasligiga) ko'ra tasniflar keltiriladi. Struktur-semantik talqinda qo'shma gaplar tasnifi uning ma'lum bir qirrasida tasnif etilgan. Oldin yaratilgan tasniflarga tayangan holda ishda qo'shma gapning birgina qirrasini ko'rsatuvchi - qismlari tuzilishi jihatdan tasnifi berildi.

3. Jahon, xususan, g'arb tilshunosligida bir sostavli gaplar o'z o'rganish tarixiga ega. Ingliz va o'zbek tilshunosligida ham bu masala tadqiq etilgan. Ishda olimlarning bu masala haqidagi fikrlari guruhlariga ajratib aniq qilib berilgan (ingliz, o'zbek va rus tilshunosligidagi ma'lumotlar). Ingliz grammatiklari bir sostavli(egasiz) gaplarni, umuman, ajratmaydilar. Ingliz tilida shaxssiz gaplar(egasi topilmaydigan gaplar) *it* birligi yordamida berilishi haqida maxsus tadqiqotlarga qisqacha to'xtalinadi. Ingliz tilidagi bu kabi gaplarning o'zbekcha varianti! tekshiriladi. Boshqa g'arb tillari ilmiy grammatikalarida esa bu masala rus tiliga o'xshash tarzda tasnif etilgan.

4. Bitiruv malakaviy ishda qo'shma gap bar ikki qismi bir tarkibli sodda gaplar bilan shakllanganligi va ularning ingliz tilidagi varianti, o'zbek tiliga tarjimada moslashishi qiyoslanayotgan tillar misollari yordamida yoritiladi. Qo'shma gap qismlarining bir-biri bilan bog'lanishida grammatik vositalarning qo'llanishi hamda ularning ikki tildagi variantlari ko'rib chiqiladi.

5. Ingliz tilida bog'langan qo'shma gaplar o'zbek tiliga tarjima qilinganda shakliy-ma'noviy o'zgarishlari, qo'shma gap tarzida berilishi tahlil etildi va ularning boshqa gaplar bilan munosabati o'rganildi.

6. Ingliz tilida qo'llangan qo'shma gaplar boshqa tillarda qo'llangan qo'shma gaplardan mohiyatan farq qilmaydi. Qo'shma gaplardan foydalanishda badiiy uslubda imkoniyat keng, xuddi shuningdek tadqiq ob'yekti - E.Xemingueyning «Alvido Qurol» asarida ham qo'shma gaplarning qo'llanish doirasi tor emas.

7. Ingliz tilida qo'shma gaplarning teng va tobe tarkibli tipik turlari ham qo'llanadi. Ayniqsa, ularning tarkibida bosh gap, yig'iq gap tarzida kelishi diqqatga sazovor. Muallif ulardan unumli va juda o'rinli foydalanadi.

8. Ingliz tilidagi teng tarkibli qo'shma gaplar, o'zbek tiliga teng bog'lovchili qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap, o'xshatish ergash gapli qo'shma gap, sodda gap, holat ergash gapli qo'shma gap tarzida matn asosida, mazmun o'zgarmasligi uchun berilishi mumkinligi misollar asosida ko'rib chiqildi.

9. Mazmun munosabatlarining bir xil qurilma orqali yoki boshqa qurilma bilan turli tillarda berilishi ham qiziqarli, shuningdek, qism kesimlarining ingliz va o'zbek tillarida ifodalanish

materiali ham diqqatga sazovor. Ingliz manbalarida ifodalangan mazmun o'zbek tili variantlarida bar doim ham aynan berilmaydi.

10. Qo'shma gap qismlari bir xil so'z turkumlari yoki bir qism kesimi fe'l, ikkinchisi ot (keng ma'noda) bilan va aralash hollarda qo'llangani ham ko'p uchraydi. Sunday qo'llash ikki tilda bu kabi konstruksiyalar yordamida o'quvchiga berilayotgan zarur ma'lumotlarning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilmiy adabiyotlar ro'yxati:

1. I. A. Karimov «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» 2012. Toshkent.
2. I. A. Karimov. «Yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash- mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti » mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 2012 yil.
3. Blokh M.Y. Theoretical English Grammar. Moscow, 1983. 383 p.
4. Ganshina M.A. Vasilevskaya N.M. «English grammar» M., Higher school publishing house 1964 598 p.
5. Ilish B. «The structure of Modern English» Leningrad 1971. 366 p
6. Kaushanskaya V.Z. and other «A grammar of the English» Leningrad 1971.320
7. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. Toshkent. 1958. 325 b.
8. Maxmudov N.M. O'zbek tilshunosligining taraqqiyoti. // J. O'zbek tili va adabiyoti. T. 1984. 147-b. _
9. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. T. «O'qituvchi» 1983, 232 bet
10. O'zbek tili grammatikasi. II Sintaksis. Toshkent 1976.
11. G'apparov M. «Ingilz till grammatikasi» Toshkent 2006. 336 b
12. G'ulomov A. O'zbek tilida aniqllovchilar. Toshkent. 1941
13. G'ulomov_AXj'. O'zbek till grammatikasi.(II qism. Sintaksis. Pedbilim o'quv yurti o'quvchilari uchun) Toshkent. 1940.
14. Бархударов Л.С., Штелинг Д.А, Грамматика английского языка. М. 1978.
15. Качалова К.н. и др. Грамматика английского языка. Бишкек 2005.

Badiiy adabiyotlar ro'yxati:

1. Charles Dickens «_American Notes». Foreign languages publishing house. Moscow. 1950. 254 p.(qisqacha «D»)
2. Edison Marshall «The Lost Colony». Garden City, New York. Doubleday & Company, Inc. 1964. 438 p. (qisqaeha «E.M»)
3. Ernest Hemingway «Farewell To Arms». Leningrad 1971. 264p.(qisqartmasi» F.A.»)
4. Ernest Xeminguey «Alvido Qurol». I.G'afurov tarjimasi. Toshkent. 1973 yil. 344 b.(qisqartmasi «A.Q.»)
5. Nathaniel Hawthorne «Endicott and the Red Cross», «MY Kinsman major molineux», «The great stone face», «Mr.Higginbotham's Catastrophe». Progress Publishers. Moscow. 1978. 52 p. (qisqacha «N.H»)
6. Peter Abrahams «The Path of Thunder». Higher School Publishing House. Moscow. 1971. 336 p. (qisqacha «P.A»)

Lug'atlar:

1. «The Oxford Russian Dictionary» Bishkek - 2000. 738p.
2. «Longman dictionary of Contemporary English». Moscow, 1992.
3. E.R.Galperina. New English - Russian Dictionary. Moscow, 1979.
4. Hornby A. S. Oxford Student's Dictionary of Current English. Oxford University Press, 1978.
5. Аракин И.Д. «Англо - русский словарь». Москва, 1954.